

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
-------------	---

I BOB TARJIMA HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT VA UNING

KECHAGI HAMDA BUGUNGI KUNDAGI KO'RINISHI.....

1.1. Tarjima haqida umumiy ma'lumot, uning turlari va uni alohida fan sifatida tan olinishi.....	10
1.2. Informativ tarjima haqida umumiy ma'lumot. Informativ tarjimaning jamiyat hayotidagi ahamiyati.....	20
1.3. Bugungi kun ommaviy axborot vositalarining tarjimada qo'llanilish xususiyatlari va ularning talqini.....	27
Birinchi bob bo'yicha xulosa.....	29

II BOB. OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING INFORMATIV

TARJIMA SIFATIDA NAMOYON BO'LISHI.....

2.1. Informativ tarjima jarayonida turli uslublarning qo'llanilishi.....	31
2.2. Ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilinayotgan matn va xatlarning tillar o'rtasida aynan o'xshash va farqli tomonlari.....	38
2.3. Xatlar tarjimasida uslubiy vositalarning qo'llanilishi va ularning tahlili.....	46
Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....	50

XULOSA VA TAKLIFLAR.....	53
--------------------------	----

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	57
--------------------------------	----

ILOVA

KIRISH

Tabiatning eng buyuk mo'jizasi inson ekanligi hech kimga sir emas. U dunyoni mukammallashtiruvchi, insonlar hayotini asrab qolishga hissa qo'shuvchi kashfiyotlar qiladi. Insoniyatning qadami yetmagan, u o'rganmagan soha, u zabt etmagan cho'qqi, u yetmagan sayyora qolmagan. Shunday ekan, insoniyatning qilgan ishlari mangulikka muhrlanadi. Agar uning ijodi haqida so'z yuritadigan bo'lsak, uning buyuk tarjimalari haqida ta'kidlasak bas. Madaniyatlararo aloqalarning barqarorligi ham, shubhasiz, inson ijodining mahsuli bo'lgan tarjima orqali namoyon bo'ladi. Shunday ekan, tarjima-millatlar va elatlarning, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, madaniyatidan bilinadi. Demakki, tarjimonlar bu millat va elat madaniyatining kuychilari hisoblanadi. Mashhur rus yozuvchisi A.S.Pushkin: "Tarjimonlar - ma'naviyatning pochta otlaridir",-degan so'zlari, yuqoridagi fikrlarimizning yaqqol dalilidir.

Mamlakatlararo o'zaro madaniy, ma'rifiy hamda iqtisodiy aloqalar mamlakat rivojini va taraqqiyot cho'qqisini belgilab beradi. Shunday ekan, madaniy hamda ma'rifiy merosning negizi, shak-shubhasiz adabiyot hisoblanadi. Mamlakatlararo adabiyotning ahamiyati juda yuksak bo'lib, ulur asosan tadqiqotchi olimlar, tilshunoslar va albatta tarjimonlar orqali boyitiladi va tarqatiladi. Shu xususda gap ketar ekan, barcha sohalarning yo'lboshchisi bo'lgan, mashhur rus adibining ta'biri bilan aytganda, madaniyatlarning pochta otlari bo'lgan, tarjimonlar xususida so'z yuritishni lozim deb bilamiz. Tarjimon so'ziga to'xtaladigan bo'lsak, uning ildizi o'tmishga, tarixga borib tarqalishi hech kimga sir emas.

Tarjimon so'zi, forsha "tarzabon" so'zidan olingan bo'lib, "shirin suhan", "chiroyli so'zlovchi", "chiroyli nutqqa ega kishi" degan ma'nolarni anglatadi. Tarjimonlarning faoliyati qadim-qadimdan o'z samarasini berib kelgan. Mamlakatning iqtisodiy, siyosiy hamda ilmiy salohiyatini yanada boyitish maqsadida, boshqa mamlakatlar iqtisodiyoti, siyosati va ilm-fanidan andoza olish uchun ham, tarjimonlarning harakati beqiyos bo'lgan. Agar buni ilm-fan miqyosida oladigan bo'lsak, unga adabiyotni yaqqol misol deb bilamiz. Chunki adabiyot xalq

va muallifning hayoti, ichki kechinmalari, yohud inqirozi sabablarini yoritib beruvchi, unga aniqlik kirituvchi va xalqni taraqqiyot sari boshlovchi asosiy omil hisoblanadi. Shu o'rinda atoqli o'zbek adibi Cho'lponning " Adabiyot yashasa millat yashaydi",- degan so'zlari fikrimizning yaqqol dalilidir. Zeroki yer yuzidagi ko'plab adiblarning asarlari tarjimonlar orqali yer yuzini ko'radi. Bu asarlarda dunyo xalqlarining hayot yo'li, umr guzaronligi, an'ana va qadriyatlarini, fikrimizni lo'nda qilib aytganda- millatning tarjimai holini ko'rishimiz mumkin.

Bunday izlanishlar o'z navbatida tarjimonlarning faoliyatida o'z ifodasini topgan desak o'ylaymizki yanglishmagan bo'lamiz. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlash joizki, tarjima jarayoni faqatgina aloqa munosabat vositasi emas, balki u madaniyatlar, ma'naviyatlar kuychisi desak xato bo'lmaydi.

Tarjimonlar haqiqatdan ham yuksak did va mahorat egasi bo'lib, muallif ijodini yanada takomillashtirib, uni ilmiy-nazariy jihatdan boyitib, so'z yuritadilar. Tarjima nazariyasi esa taxminan 1960-yillarda alohida fan sifatida tan olinib, turli xil universitet va pedagogika institutlarida fan sifatida o'tilgan. Hozirda mavjud bo'lgan tarjima va tarjima nazariyasi tushunchalarining mustaqillikdan ilgari ham keng miqyosda o'rganilganligini quyidagilarda ko'rishimiz mumkin:

- Turli xil universitet, xususan, roman-german filologiyasida tarjima nazariyasi va amaliyoti umumiy-majburiy fan sifatida o'tilishi;

- Universitetni bitiruvchi talabalar o'zlarining asosiy mutaxassisliklaridan tashqari qo'shimcha ravishda tarjimon degan mutaxassislikka ega bo'lishlari;

- Jurnalistika fakultetlarida yangi tarjimachilik ixtisosining paydo bo'lishi, shular jumlasidandir.

Demak, O'zbekistonda tarjimaga oid tushunchalar va ularni tadqiq etish, mustaqillikdan oldin boshlangan, shunday ekan, tarjima qilish san'ati bizga nafaqat bir tushuncha, balki, bir darslik sifatida ham o'tilib, taraqqiyotga erishgan.

Mavzuning dolzarbligi. Tarjima san'atining qanchalik darajada murakkab ekanligini ta'kidlab o'tish bilan birga, ushbu tushunchaning qay darajada mukammallikka ega ekanligini, uning madaniyatlararo san'at ekanligini talqin etish. Tarjima hamda tarjima nazariyasi kabi tushunchalarining azal-azaldan

mavjud bo'lib, ushbu tushunchalarning xalqaro miqyosda ahamiyatga ega ekanligida o'z ifodasini topadi. Muallif hamda tarjimon munosabatlarining tarjima jarayonida bog'lanishi va mustahkamlanib, ijodiyotning mahsulini yaratilishida ko'rishimiz mumkin. Millatlar va xalqaro deb tan olingan tarjima tushunchasining qay darajada ahamiyat kasb etishini, kirish qismida ko'rib chiqamiz.

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilganligini oliy o'quv yurtlarida tarjimashunoslikning alohida fan sifatida o'tilishi va alohida tarjimonlik fakultetlarining ochilishi, mamlakatimizda tarjimaga qaratilgan yuksak e'tibor desak adashmagan bo'lamiz. Tarjimaning O'zbekistonda qay darajada yuksaklikka erishganini, G'aybullar Salomovning "Tarjima nazariyasiga kirish" nomli kitobida ham o'z isbotini topgan.

Shunday ekan, tarjimaning- ijod san'ati bo'lib tug'ilib, uning millatlararo hamda xalqaro miqyosda tan olinib, yoyilishida, taraqqiy etishini ko'rishimiz mumkin.

Shuni aytish joizki, mustaqillik yillaridan oldin tarjimada o'zbek tiliga o'girishda, bilvosita tarjima 60% ni tashkil etar edi, ya'ni xorijiy tildan rus tiliga, rus tilidan esa o'zbek tiliga tarjima qilish. Hozirda esa bu ko'rsatkich ancha pasaygan, ya'ni hozirda xorijiy tildan bevosita, ya'ni, to'g'ridan to'g'ri o'zbek tiliga tarjima qilish ishlari amalga oshirilmoqda. Bu esa hozirda yoshlarimizning chet tillariga, xususan tarjimaga bo'lgan e'tiborlari natijasidandir.

Ilmiy izlanishning maqsad va vazifalari. Turli xil tarjima turlarining o'xshash va bir-biridan farqli tomonini ochib berish umuman olganda, ularning tarjima sohasida tutgan o'rni alohida o'rganilayotgan tarjima turlari, ularning bugungi kunda nechog'lik jamiyatda qo'llanilayotganligining ifodasini tadqiq etishdan iborat. Mustaqillik yillaridan oldin hamda hozirgacha bo'lgan davr mobaynida, o'zbek yozuvchi, shoir hamda tarjimonlarning ijodidan bahramand bo'lgan holda, ularni o'rganish, ularga qo'shimchalar kiritish hamda kelajak avlodga yetkazishdan iborat.

Nafaqat o'zbek yozuvchilari-yu tarjimonlari, balki jahon yozuvchi va tarjimonlarining ijodini o'rganib chiqib, ulardan andoza olishdan iborat. Dunyo

ilm-u ma'rifat ziyosini tarqatayotgan soha sifatida taraqqiy etishiga hissa qo'shayotgan ijodkor hamda tarjimonlar ijodini yanada yuksaklikka ko'targan holda, uni o'rganish.

Ta'lim tizimiga nima sababdan fan sifatida kiritilganligini ilmiy faktlar asosida ochib berishdan iborat.

Mamlakatimizda endigina tarjima sohasiga qo'l urgan va tarjima qilishni o'rganayotganlar uchun "Tarjimonlar maktabi" ochilishining muhim ahamiyatini asoslash.

Undan tashqari yana tarjima turlari haqida to'xtalib, ilmiy ishning mavzusi bo'lgan informativ tarjimaning jamiyatdagi roli. Uning iqtisod, siyosat va ilm-fan sohalarida tutgan o'rni haqida atroflicha fikr yuritishdan iborat.

Informativ tarjimaning o'zbek va chet tillari miqyosida keng qamrovga ega ekanligini hisobga olgan holda, ularni ikki til orasida o'xshash hamda noo'xshash tomonlarini ko'rib chiqib, undagi muammolarni o'rganib chiqish va bartaraf etishdan iborat.

Informativ tarjimani o'rganib chiqqan holda, uning tarjimada berilishini leksik, grammatik jihatdan ko'rib chiqilgan va uning ustida chuqur mulohazalar yuritilgan.

Ishning izlanish obyekti va manbalari. Ilmiy ish tarjima sohasiga oid ekan eng avvalo, xorijiy mamlakatlar hamda O'zbekiston miqyosida tarjimaga bo'lgan ahamiyat unga bo'lgan ehtiyoj haqida fikr yuritgan holda buyuk tarjimonlar va ularning ijod mahsuli bo'lgan adabiyotlarga yondashish Davlat ahamiyatiga molik bo'lgan asarlar va hatto hikoyalar tarjimasiga tayanish. Ilmiy ishning bosh mavzusi "Informativ tarjimada uslubiy vositalarning berilishi" bo'lganligi sababli, informativ tarjimaga oid bo'lgan adabiyotlarni o'rganib chiqish.

Informativ tarjimada tarjima jarayonida sodir bo'ladigan leksik-semantik, stilistik o'zgarishlarni ko'rib chiqish.

Tarjimada informativ tarjimani boshqa tarjimalar bilan solishtirish. Gazeta, jurnal hamda radio, televideniyada informativ tarjimaning berilishi va shu borada ommaviy axborot vositalariga tayanishdan iborat.

O'z navbatida ommaviy axborot vositalarini chet el ommaviy axborot vositalari bilan solishtirgan holda ilmiy ishga kiritishdan iborat.

Informativ tarjimaga oid bo'lgan matnni alohida o'rganib chiqqan holda, uning ma'nosini qay yo'sinda, qaysi uslubga xos ekanligini bilish maqsadida uslublarga oid bo'lgan adabiyotlarni o'rganib chiqish.

Informativ tarjimaning nega aynan ushbu nom bilan berilishini o'rganib chiqish. XXI asr axborot texnologiyalari asri bo'lganligi sababli turli xil internet saytlari hamda lug'atlardan foydalanib informativ tarjima borasidagi bilim va ko'nikmalarni yanada boyitishdan iborat.

Ilmiy ishning metodologik asoslari va tadqiqot usullari. Informativ tarjimaning jamiyatdagi rolini hisobga olgan holda ilmiy ishni yozish davomida tarjimashunoslikka kirish, tarjima nazariyasi va amaliyoti tilshunoslik, jamiyatshunoslik, mantiq kabi manbalarga asoslanish.

Shunday ekan, tarjimaning birgina turi bo'lib hisoblangan informativ tarjimaning mohiyati uning negizi olam-olam fan hamda olam-olam nazariyalar bilan bog'liq ekan. Shuni alohida aytish joizki, ushbu, ya'ni informativ tarjimada OAV ning o'rni beqiyosdir. Chunki ushbu tarjimaning negizida va yaralishida asosan matbuotning gazeta, jurnallar matnlaring tahlili va o'rganish yotadi.

Informativ tarjimani o'rganish jarayonida tilshunoslik, tarjimashunoslik, siyosatshunoslik, mantiq kabi manbalarga asoslanib unga qo'shimcha ravishda rus va ingliz tillari bilan o'xshash va noo'xshash tomonlarini o'rgangan holda yondashdik.

Informativ tarjimadagi xabarlarni ingliz va rus tillari bilan taqqosladik. Manbalarga asoslangan holda informativ tarjimani leksik-grammatik, semantik va stilistik ma'nolarini o'rganib chiqdik. Ilmiy ishning mavzusi ustida ishlash mobaynida ingliz va rus tilidagi grammatik hodisalarning tarjima jarayonida ya'ni o'zbek tilida uchramasligining guvohi bo'ldik. O'zbek tilida ko'pincha o'ziga xoslilikning mavjudligiga amin bo'ldik.

Ishning ilmiy yangiligi. Ilmiy ishni o'rganish mobaynida juda ko'plab manbalardan foydalangan holda, juda ko'p yangiliklar bilan to'qnash keldik. Ular

tarjima jarayonidagi grammatik, leksik tahlillar asosida bo'lib qonun qoidalarga bo'ysunish yoki tarjima jarayonida bunday qonun qoidalarining umuman bo'lmasligini bilib oldik. O'zbek, ingliz, rus tillardagi tarjimalarni o'zaro qiyoslab tahlil qilish jarayonida ayrim grammatik hodisalarning uchramasligi yoki umuman bo'lmasligini o'rganib chiqdik. Xususan, rus tiliga xos bo'lgan rod kategoriyasi, ingliz tiliga xos bo'lgan axborotlarning o'zbek tilida berilmasligi, yoxud umuman yo'qligini keltirish, fikrimining dalilidir.

Ilmiy ishimizning mavzusiga asoslangan holda, asosan hujjatlar bilan ishlashni inobatga olgan holda hujjatlar tarjimasining qaysi uslubga xos ekanligini aniqlashda ko'rinadi. Birgina hujjatning ilmiy, badiiy, publitsistik uslubga xos ekanligi va aynan qaysi uslubda yozilganligini o'rganib chiqish ham bir kashfiyot.

Ilmiy ishni yozish jarayonida hali yana ko'plab adib, shoir hamda tarjimonlarning faoliyati bilan tanishgan holda tarjima borasida yuritilgan fikrlarni o'rganish ham, ilmiy ishning yangiligidir. Ilmiy ishning mohiyatini o'rganib chiqqan holda shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, ilmiy ishni yozish jarayonida qanday xulosaga kelish va qanday xulosa chiqarishning o'zi ham bir yangilikdir.

Ilmiy izlanishning nazariy va amaliy ahamiyati. Ilmiy izlanishning metodologik asoslari va taqiqot usullari haqida gapirganimizda G'aybulla Salomovning "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" nomli manbasi bilan birga ko'plab manbalardan foydalanganimizni ta'kidlab o'tdik. Ilmiy izlanishning nazariy va amaliy ahamiyati mana shu manbalar asosida mukammallashadi. Ilmiy ishning negizi nazariyalarni o'rganib, ularga tayangan holda ish ko'rsa, tarjimaning yozma ravishda yoki og'zaki tarzda yuzaga chiqishi amaliyotning bir ko'rinishidir. Demak, ilmiy ishning mavzusi nazariya hamda amaliyotga tayanadi. O'zbek, rus, ingliz tilida berilgan manbalarning mohiyatini ochib bergan holda ularni tadqiq qilish va nazariya va amaliyotga ega bo'lish. Bundan tashqari yana informativ tarjimada uslubiy vositalarning berilishi, ularning ishlatilishi bo'yicha nazariy amaliy bilimni oshirish va jamiyatga yoyish.

Informativ tarjimaning og'zaki hamda yozma ravishda berilishi, uning og'zaki hamda yozma ko'rinishdagi ahamiyati hamda unda nazariyaning qanchalar

muhim ekanligini ko'rsatib berish, nazariyasiz, ilmiy yondashuvlarsiz hech bir tarjimon tarjimon bo'lolmasligini isbotlab berishdan iborat.

Tarjimaning yuzaga chiqishida esa amaliyotning, ya'ni amaliy yondashuvning ahamiyatini ochib berish.

Ishning hajmi va tuzilishi. Ilmiy ishning tuzilishi va hajmi haqida so'z yuritadigan bo'lsak, uni qoidaga muvofiq ravishda mundarija bilan boshladik. Mundarija kirish bilan boshlanib, ilmiy ishning ushbu qismida tarjimaga oid fikr-mulohazalar, bayon etilgan. Qisqacha qilib aytganda, ushbu qism ilmiy ishning qisqacha mazmun mohiyatini ochib beradi. Undan keyingisi, 1-bob, "Tarjima haqida umumiy ma'lumot va uning kechagi hamda bugungi kundagi ko'rinishi" deb nomlanib, tarjimaning paydo bo'lishidan boshlab, uning taraqqiy etishi va bugungi kundagi ko'rinishi haqida so'z yuritilgan.

O'z navbatida ushbu bob, uch qismni o'z ichiga olib, ular tarjima, tarjima turlari, informativ tarjima haqidagi tushunchalardan iborat. Keying 2-bobda esa jamiyatda va tarjimada ommaviy axborot vositalarining o'rni haqida fikr yuritiladi. Ilmiy ishning mavzusi aynan mana shu bobda misollar bilan to'liq ravishda yoritib berilgan. Ushbu bob ham o'z navbatida 3 qismdan tashkil topgan bo'lib, ular ham alohida-alohida tushunchalarni va ilmiy faktlarni ilgari suradi. Ulardan biri informativ tarjima jarayonida- uslub va ma'no ko'chishlari, yana biri esa ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilinayotgan matnlarning o'xshash va farqli tomonlari haqida va nihoyat, oxirgisi gazeta va jurnallar matnlarida uslubiy vositalarning qo'llanilishi va ularning tahlilini o'rganishdan iborat. Har bir qismga mustaqil ravishda yondashgan holda fikr-mulohaza yuritilgan.

I BOB

TARJIMA HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT VA UNING KECHAGI HAMDA BUGUNGI KUNDAGI KO'RINISHI

1.1. Tarjima haqida umumiy ma'lumot, uning turlari va uni alohida fan sifatida tan olinishi.

Xalqlarning ma'naviy merosi bo'lmish tarjima insonlar hayotini, turmush tarzini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Xalqlar hech qachon bir-birlaridan mutlaq ajralgan holda yashashlari mumkin bo'lmagani singari, ularning moddiy va madaniy yodgorliklari, adabiyoti va san'ati ham hech qachon faqat bir milliy chegara doirasida saqlanib qolmagan. Insoniyat yaratgan eng buyuk san'at va adabiyot namunalari chegara bilmagan, ular goh o'zgarib, goh qisqarib, goh qo'shilib, chatishib ellardan ellarga, tillardan tillarga ko'chib, yoyilib yurgan.

Aslida, fan, badiiy adabiyot, san'at va tarjima haqidagi bahsni xalqning savodxonligi, umumiy, madaniy saviyasi, o'lkada matbuot va nashriyot ishining ahvoli masalasidan boshlash kerak. Adabiyot, kitob, tarjima ularni o'qiy oladigan, tushunadigan va munosib baholashga qurbi yetadigan xalq uchun yaratiladi, zeroki, har bir kitobning qiymati uni mutolaa qiluvchi kishining umumiy, madaniy tayyorgarligi, talabi va didi bilan baholanadi. Yuksak ilmiy, ijtimoiy-siyosiy va badiiy saviyada yaratilgan asar, xususan, agarda unda boshqa xalqlar hayoti tasvirlangan, yoxud u xorijiy adib yoki olimning qalamiga mansub bo'lsa, bu kitobxonning faol mushohada etishini talab qiladi. Har bir tarjima asari-o'z davrining mahsulidir.

Tarjima va kitobxon o'rtasidagi munosabatning davr o'tishi bilan o'zgarishi ham yuqoridagi fikrimizga qo'shimcha sifatida ko'riladi.

Umuman olganda, tarjimaning maqsadi-xorijiy lisoniy vositalari yordamida yaratilgan matnning ona tili materiali asosida qayta yaratishdan iborat.

Tarjima amaliyoti paydo bo'libdiki, asliyatni ona tiliga qanday o'girish lozim, so'zma-so'z yoki erkin tarzdam, degan masala tarjimonlar oldida ko'ndalang turgan muammodir. Bular barcha davrlarda turli xil ko'rinish va fikrga ega bo'lgan.

XX asrning boshlarida ijod qilgan san'atkorlar so'zma-so'z tarjimini yoqlab chiqishgan. Ular o'z amaliyotida faqat tarjimaning ushbu turiga yondashishganlar. Yana boshqa ijodkorlar bo'lsa, erkin tarjimini afzal ko'rib, ular biror-bir asar yoki axborotni erkin ravishda berish lozim degan fikrlarga tayanishgan.

Shunday ekan, har bir tarjima turi, muallif va tarjimonning savodxonligi, estetik didi va tushunchalari nuqtayi nazaridan ko'rib chiqqan holda yondashilgan. Quyida tarjima turlari bo'yicha fikr yuritamiz.

Ijodiy tarjima-bu asliyat lisoniy vositalari matniy ma'nolar va uslubiy vazifalari umumxalq tili, grammatik qoidalari bilan hamohanglikda qayta yaratiladi. Lisoniy vositalarning milliy, tarixiy, ijtimoiy va obrazli hissiy xususiyatlari asliyatga xos va mos tarzda talqin etiladi. Asar sahifalarida muayyan uslubiy maqsadlar uchun qo'llanilgan fonetik hamda leksik-grammatik nutqiy chekinishlar va vazifalariga muvofiq muqobil lisoniy vositalar yordamida tiklanadi. Bularning barchasi muallif maqsadining kitobxonga yetib borishi uchun imkon yaratadi.

So'zma-so'z tarjima muallif matnini hijjalab o'girish orqali uning mazmunini, vazifaviy uyg'unligini soxtalashtiradigan, hissiy ta'sirchanlik xususiyatini badiiy obrazlar asosini xiralashtiradigan tarjima tili me'yori va madaniyatini barbod etadigan, binobarin, asliyatning tugal-adekvat tarjimasi sifatida qabul qilib bo'lmaydigan ikkilamchi matnga aytiladi. Bu tarjima turida asliyat tarkibidagi so'z birikmalari, barqaror iboralar grammatik qurilish, so'z tartibi aksariyat hollarda tarjima tili qonuniyatlariga moslashtirilmaydi. Ko'pchilik lisoniy vositalar matniy holatlariga, vazifaviy jihatlariga, davriy va milliy xususiyatlariga qarab emas, balki lug'aviy ma'nolari asosida o'giriladi. Bu hol milliy, tarixiy va hissiy ta'sirchan lisoniy vositalarning qo'shimcha xususiyatlaridan holi uslubiy betaraf so'z va birikmalar yordamida talqin etilishiga olib keladi.

Undan tashqari, yana erkin tarjima turi haqida so'z yuritadigan bo'lsak, ushbu tarjima turiga o'tgan asrning o'rtalarida tez-tez murojaat qilib turilgan.

Bunda tarjimon asliyatning shaklini to'la e'tibordan soqit etgan holda mazmunini esa o'z so'zlari bilan sodda va qisqa hikoya qilib bergan. Gohida

o'zboshimchalik bilan asar unsurlarini o'zgartirib yoki qo'shgan holda tarjima qilgan. Undan tashqari, yana personajlar xususiyatlari ayrim hollarda tarjima qilingan, ayrim hollarda esa yo'q. Oqibatda muallif asari tarjimada tanib bo'lmas darajada o'zgarib ketgan.

Bunda asarni muallif yaratgan zaruriy shaklda emas, soddalashtirilgan, qisqartirilgan holda o'zga millat va elatga uzatilgan. Bu esa, o'z navbatida, kitobxonlarning noto'g'ri tasavvurga ega bo'lishiga sabab bo'lgan. Yuqoridagi fikrlarga qo'shimcha qilish maqsadida shuni aytish joizki, tarjimonning estetik didi, yondashish usuli bilan nafaqat kitobxon, balki butun bir xalq, millat xabardor bo'lishi mumkin.

Umuman olganda, tarjimani umumiy manbalarga asoslangan holda ikkiga bo'lishimiz mumkin. Bular og'zaki va o'z navbatida, yozma tarjimalar bo'lishi mumkin. Ularning hech biri biror-bir kamchilikka uchramagan holda muallif hamda tarjimonning savodxonligi va salohiyati umumlashmasi ko'rinishida namoyon bo'ladi. Ushbu tarjima turlaridan tarjimonlar o'z davrida juda keng ko'lamda foydalanishgan. Turli mamlakatlarda badiiy tarjima muammolariga bag'ishlab o'tkazilgan Mintaqaviy kengash va simpoziumlarda so'zma-so'z tarjima amaliyoti qattiq qoralanib kelindi, bu haqda ko'pgina tanqidiy fikrlar bayon etildi.

A. Sharif o'z ma'ruzasida so'zma-so'z tarjima amaliyotini illatli usul deb hisoblagan bo'lsa, T.Gnedich uning ijodiy ish emas, balki "sirk tomoshasiga o'xshash masxarabozlik" ekanligini qayd etdi. X.Xantemirovaning fikricha, "eng yaxshi so'zma-so'z tarjima" ham asliyat boyligi va o'ziga xosligini to'la-to'kis talqin etishga ojizlik qiladi. Tarjimon yaratgan nursiz vositalarda muallif uslubidan ko'ra tarjimon qalami ko'proq ko'zga tashlanib turadi.

O'z navbatida, sinxron tarjima haqida so'z yuritadigan bo'lsak, ushbu tarjima 1946-yilda Londonda BMTning bosh assambleyasiga bag'ishlangan yig'ilishda bir guruh sinxron tarjimonlarning ishtiroki bilan boshlangan.

Ushbu tarjima turi nafaqat jamiyat hayoti, balki butunjahon taqdiri yo'lida xizmat qilgan. Tarjima qilish usulining ikkinchi turi bo'lgan, yozma tarjima esa xalqning tarjimai holini, uning kelib chiqishini kuylaydi. Har bir millatning milliy

ko'zgusi uning adabiyoti deb oladigan bo'lsak, yozma tarjima, o'z navbatida, adabiyotlar tarjimasi bilan shug'ullangan. Tarjimaning ushbu turi orqali milliy madaniyat yuksala boshlagan. Yozma tarjima tufayli, dunyoning turli tillarida yozilgan adabiyotlar hamda ilmiy jurnallardan keng ko'lamda xabardor bo'ldik. XX asr boshlarida yozilgan, qonli urushning zulmli onlarini tasvirlab, undan nola qilib yozilgan asarlar orqali xalqning ichki kechinmalari bilan hamnafas bo'ldik. O'zbek adabiyoti durdonalaridan bo'lmish, shoh asarlardan butun dunyo xabardor bo'ldi. Bu esa, o'z navbatida, yozma tarjimaning o'rni beqiyos ekanligidan darak beradi.

Asliyat tilidan bevosita tarjima qila oladigan usta san'atkorlari deyarli bo'lmagan xalqlarga erkin o'girish yo'li bilan bo'lsa-da, asarni yetkazib berish vazifasini o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan tarjimonni qaysidir ma'noda tushunish mumkin.

Maqsadli asliyatning mazmun va shakl birligini aynan saqlashdan iborat bo'lgan tarjimon o'z mas'uliyatiga halol munosabatda bo'lganida, arab afsonalari turkumi "Ming bir kecha" tarkibiga kiruvchi "Bir soatlik halifa" asarining o'zbekcha tarjimasida berilgan tarjimon izohida quyidagi satrlarni o'qimagan bo'lardik:

"Men tarjimada ruscha nusxaga qattiq rioya qilmadim, kitobxonga qulay bo'lsin uchun qatma-qat jummalarni siqishtirdim, takrorlarni qisqartirdim, o'quvchini shubhaga soladigan joylarini olib tashladim"

Obrazlashtirilgan tarjima turida muallifning individual ijodiga xos tarzdagi tasvirni yuzaga keltirgan lisoniy vositalar beasos obrazli iboralar, his tuyg'uni ifoda etadigan so'zlar, balandparvoz birikmalar bilan almashtirib o'giriladi.

Natijada muallif tasviri me'yori buzilib, muddaoga zid o'zgacha uslubli matn yuzaga keladi. Muallif ijodi ham o'z-o'zidan hissiy-ta'sirchan so'z va iboralar, obrazli tashbehtar bilan to'lib-toshgan bo'lishi mumkin. Bu yozuvchining voqelikni badiiy-estetik jihatdan barkamol tasvirlashga intilishi bilan bog'liq bo'lib, ayni sa'y-harakat hech qachon me'yordan oshib ketmaydi.

Obrazlashtirilgan tarjimada esa, barcha harakatlar asar obrazlilikini kuchaytirish uchun ataylab amalga oshirilishi tufayli umumiy obrazlilik haddan ziyod tus olib, g'ayritabiiy xususiyat kasb etadi. Kitobxonning jig'iga tegadigan bunday tarjima matni soxta estetik tasavvur hosil qiladi.

Yana bir asliyatga o'ta erkin holda yondashadigan tarjima turi bu moslama tarjima bo'lib hisoblanadi. Ushbu tarjima turida ko'proq komediya janriga mansub sahna asarlari hamda she'riyat namunalari tarjimasida mavzu, personajlar tarkibi, mazmuniy xususiyat odatda saqlansada, asliyatda mujassamlashgan milliy o'ziga xoslik, urf-odatlar, ruhiy holatlar tarjima tili sohiblariga xos shunday jihatlar bilan almashtiriladi. Natijada o'ziga xos tasviriy vositalar silsilasidan iborat muallif matni tarjima tili mansub bo'lgan xalq libosiga burkanadi. Bunday tarjima beasos asliyatni imkon qadar tarjima tili sohiblariga yaqinlashtirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Moslashtirilgan tarjima usuliga ko'proq o'tgan asrning 30-40-yillarida murojaat qilingan. Masala shu darajaga borib yetganki, ko'p hollarda sahna asarlari personajlari nomlari mahalliy xalq vakillari nomlari bilan almashtirilgan, sahnada namoyish qilingan to'y-tomosha va boshqa tadbirlar o'zbekona usulga yaqinlashtirib talqin etilgan. Moslashtirilgan tarjimaning paydo bo'lishi sabablaridan biri o'z qalami quvvatiga ishonqiramagan ijodkorning asarni kitobxon qo'lida tezroq ko'rish orzusi bilan bog'liqdir. Ikkinchi sabab-tarjimonning o'zga xalq hayotining o'ziga xos tarzdagi tasviriga bag'ishlangan badiiy yodgorlikni o'z kitobxoniga maqbul va manzur tarzda yetkazib berish istagidan iborat.

Mualliflashtirilgan tarjima muallif roziligi bilan amalga oshiriladi.

O'z asarining yuqori badiiy-estetik qiymatga ega emasligini his etgan, uning o'zga til kitobxoni tomonidan yuqori baholanishiga ko'zi yetmagan iymoni sust, shuhratparast muallif asari taqdirini o'ziga nisbatan talantliroq tuyulgan adib tarjimon qo'lga topshiradi. Natijada tarjima asl nusxaga nisbatan mukammallik kasb etadi. Bunda tarjimon asar mazmunini asosan saqlab qolsada, adekvat tarjima yaratish tamoyiliga zid tarzda o'z oldiga qo'yilgan talablarni e'tibordan soqit qilib, asarning ayrim o'rinlarini olib tashlash, uni qisqartirish yoki unga o'zidan yangi

parcha yoki butun boshli boblar qo'shish, muallifning o'ziga xos tili va uslubini e'tiborsiz qoldirib, asarni o'z uslubiga bo'ysundirish yo'li bilan tarjima qiladi.

Tarjimaning keyingi turi tadbil tarjima deb nomlanib, u hamma vaqt ham asliyatning shakl va mazmuni birligini to'la-to'kis saqlagan holda amalga oshirilavermaydi. Goho tarjimonlar ta'lim maqsadida nazarda tutgan holda, talabalar saviyasidan kelib chiqib, odatda mumtoz adabiyot namunalarini hozirgi zamon tiliga qisqa, sodda va tushunarli tarzda, nazmni nasriy yo'l bilan bayon etib beradilar. Demak, tarjima bir til doirasida amalga oshiriladi. Alisher Navoiy "Farhod va Shirin" dostonining quyi sinf o'quvchilariga mo'ljallab amalga oshirilgan tarjimasi bunga misol bo'la oladi.

Asliyatni ilmiy tadqiq qilish maqsadida amalga oshirilgan tarjima akademik tarjima deyiladi. Bunda asliyatning mazmunigina saqlangani holda, shakli e'tibordan deyarli chetda qoladi. She'riy asarga xos qofiya, turoq kabi hodisalar alohida e'tibor bilan tiklanmaydi. Tarjimaviy matn asliyatning taglamasiga o'xshashligi sababli kitobxonga badiiy tarjimadek to'laqonli estetik zavq baxsh eta olmaydi.

Vositachi tildan tarjima esa keng kitobxon ommasiga turli xalqlarning nodir asarlari bilan tanishtirish, ularni insoniyat zakovati mahsuli bo'lmish yuksak darajali purmantiq fikrlar dunyosidan bahramand qilish mas'uliyatli respublikamizda badiiy tarjima ishiga katta e'tibor qaratishni talab qilmoqda. Fuqarolarimiz adabiy zahiralarini o'z vatandoshlari asarlari hisobigagina emas, balki juda ko'p yondosh, qardosh xalqlar, hatto uzoq xorij mualliflari yaratgan durdonalar hisobiga ham boyitmoqdalar. Hozirgi kunda o'zbek tarjimachiligi ham miqdor, ham sifat jihatidan gurkirab o'sish, kamolot cho'qqisi sari intilish jarayonini boshidan kechirmoqda.

Shunday qilib, mamlakatimizda hozirgi paytda asliyatdan tarjima qilish bilan bir qatorda, vositachi til orqali o'girish amaliyoti ham keng ko'lamda amalga oshirilayotgan bir paytda, tarjimashunos olimlar asl nusxadan bevosita tarjima qilish ishiga to'la xayrixoh bo'lsalar, bilvosita tarjima amaliyotiga nisbatan ular orasida turli-tuman qarashlar hukm suradi. Ba'zi tadqiqotchilar vositachi til orqali

tarjimani butunlay qoralasalar, ayrimlari bu usulni jon-jahdlari bilan himoya qiladilar.

Masalan, N.Chukovskiy o'zining "O'ninchi san'at ilohasi" nomli maqolasida mazkur usulga tish-tirnog'i bilan qarshi chiqadi: ["Mopassanning rus tilida tarjima qilish qanchalik be'manilik bo'lsa, Lev Tolstoyni ozarbayjonchadan o'girish ham shunchalik behuda ish"]

Taniqli adib Abdulla Qahhor esa N. Chukovskiy maqolasiga javob tariqasida yozgan "Tarjimachilik tashvishlari" nomli maqolasida tanqidchining mazkur fikriga qarshi chiqib, vositachi til orqali tarjima amaliyotini qattiq turib himoya qiladi: "Haqiqatgo'y bo'lish kerak! Agar biz ko'pchilik milliy respublikalardagi hamma yozuvchilarni va barcha adabiyot ixlosmandlarini tillarini hamda qardosh va xorijiy xalqlar adabiyotlarini o'rganishga safarbar qilganimizda ham bevosita asl nusxadan tarjima qilish ishlarini yo'lga qo'ya olmas edik. Biz asl nusxadan to'g'ridan-to'g'ri tarjima qiladigan san'atkorni hamma vaqt e'zozlaymiz, albatta. Ammo bunaqa tarjimonlar bizda hozircha juda kam. Nega endi biz milliy adabiyotlarni rus tili orqali qo'lga kiritilishi mumkin bo'lgan quvonchdan mahrum etishimiz kerak! "

Lope de Vega, Molyer, Shekspir, Goldoni asarlari sahnalarimiz bezagi hisoblanadi; kitobxonlarimiz V.Gyugo, R. Tagor, T. Drayzer, J. London, E.Hemingvey asarlarini o'z ona tilida o'qitishga muyassardirlar. Ularning barchasi bilvosita, ya'ni o'zbekchaga rus tilidan tarjima qilingan.

Vositachi til orqali bajarilgan tarjima ham, agar u yaxshi tarjima nusxadan yaxshi tarjimon tomonidan o'girilgan bo'lsa, kitobxonni ma'lum darajada qanoatlantiradi, unga asarning g'oyaviy badiiy qiymati haqida haqqoniy tasavvur bera oladi.

O'zbek tiliga muvafaqqiyatli o'girilgan asarlar qatoriga, masalan, buyuk Shekspirning "Hamlet", "Otello", "Qirol Lir", "Romeo va Juletta", "Yuliy Sezar" va boshqa qator pyesalari kiradiki, ularning hammasi o'zbekchaga rus tili orqali tarjima qilingan.

O'zbek sahna ustalari Shekspir qahramonlari obrazlarini mahorat bilan talqin qilayotgan ekanlar, buning sababi, birinchi navbatda, pyesalardagi obrazlarning o'zbek aktyorlari ko'z oldida haqqoniy gavdalanishida ko'zga tashlanadi.

Respublikamiz ingliz, nemis va fransuz tillarini o'rganish ko'p yillik tarixga ega. Toshkent Jahon tillari Universiteti, Samarqand Davlat Chet tillari Instituti, Toshkent Davlat Milliy Universiteti roman-german tillari fakulteti, Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika Universiteti xorijiy tillar fakulteti hamda Respublikamizning ko'pchilik pedagogika institutlari xorijiy tillar fakultetlari har yili minglab oily ma'lumotli ingliz, nemis va fransuz hamda qator Sharq tillari mutaxassislarini tayyorlab chiqarmoqdalar. Bundan tashqari, o'n minglab yuqori malakali chet tillar mutaxassislari respublikamizning oliy va o'rta o'quv yurtlarida dars bermoqdalar. Bu omillar ingliz, nemis, fransuz va sharq tillardan bevosita tarjimalar yaratish imkoni allaqachon vujudga kelganini, mazkur tillar bo'yicha vositachi tarjimalar bahridan o'tish mumkinligini ko'rsatadi.

Sharq tillaridan bevosita tarjima qilish amaliyoti ko'lam yil sayin kengayib bormoqda. Bevosita tarjimalar asosan sharqshunoslik institutida tahsil ko'rgan mutaxassislar tomonidan amalga oshirilmoqda.

Vositachi til orqali tarjimaning xavfli tomonlaridan yana biri, frazeologik birliklar vositachi tilga ma'no va uslubiy vazifa jihatlaridan uyg'un birliklar orqali emas, balki erkin ma'nodagi leksik birliklar orqali o'girilganda, leksik birliklar aksariyat ko'pma'noli bo'lganliklari uchun, asarni vositachi til orqali amalga oshirayotgan tarjimon birlikni kerakli ma'nosida emas, balki boshqa ma'nosida tushunib, o'z tiliga o'girishi, natijada tarjima asliyatdan butunlay uzoqlashib ketishi hollari ham sodir bo'ladi.

Har bir birikma va frazeologizmlarning tarjimasining aynan mos tushishi kam uchraydi, shuning uchun ularning ikki til orasidagi to'liq muqobilini topish maqsadga muvofiiq. Zeroki, bir millat, xalqqa tegishli bo'lgan ibora boshqa bir millatda boshqacha tushuncha bilan berilishi, yoki aksincha umuman bo'lmasligi ham mumkin. Shunday muammolarga e'tibor bergan holda tarjimon, o'z millati va elati kelib chiqishidagina emas, balki, boshqa millat va elat mintalitetidan

boxabar bo'lgan holda tarjima qilmog'i zarur. Shundagina tarjimon o'z ko'zlagan maqsadiga hech qanday qiyinchiliksiz erishishi mumkin.

Tarjima turlarining ko'pligi va turli xilliligi aynan ana shunda namoyon bo'ladi.

Tarjima tarixini chuqur o'rganish faqat umumiy madaniy yuksalish jarayoni yoki muayyan milliy adabiyot tarixini o'rganishdagina emas, balki o'sha adabiyotning hozirgi taraqqiyot jarayoni, xususiyati, adabiy aloqalar ko'lamini tadqiq etish, rivojlanish istiqbolini belgilashda ham muhim ahamiyatga ega. O'zbek klassik adabiyotida ayrim badiiy-estetik hodisalar original ijodga qaraganda ertaroq, badiiy tarjima tufayli sodir bo'lganligi ko'zga tashlanadi.

Tarjimalar orasida rangbaranglik, boshqacha qilib aytganda, bo'yoqdorlik asosida vujudga keladigan tarjima turi bu badiiy tarjima bo'lib hisoblanadi. Badiiy tarjima turi bu tarjimon o'z kechinmalarini erkin va yuksak mahorat bilan yondashgan holda tarjima qiladigan tarjima turi bo'lib hisoblanadi. Badiiy tarjima turining boshqa tarjima turlaridan farqli jihati aytish mumkinki, qulay tomoni bu tarjimon xohlaganicha unga qo'shimcha qo'shishi mumkin. Bu esa o'z navbatida tarjimaning bo'yoqdorligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu tarjima turi istalgan birikma olib tashlanib, uni bo'rttirgan holda qo'shimcha sifatida kiritish imkonini beradi.

Badiiy tarjima turining afzalliklaridan yana bir tomoni shundan iboratki, undagi iboralar chet tiliga so'zma-so'z tarjima asosida emas, balki to'liq muqobillikka ega bo'lgan holda tarjima qilish asnosida o'tadi. Badiiy tarjima turining ustun tomoni, tarjimon tarjima jarayoniga juda erkin holda yondashadi. Muallif ijodi bilan juda erkin holda muomalada bo'ladi. Tarjimon istalgan ibora yohud, hikmatli so'zlarni hech qanday o'ylovlarsiz qo'shadi.

“Uslub” tushunchasi tor ma'noda talqin qilinganda asarda tasvirlangan personajlar nutqining o'ziga xos uslubi tushuniladi. Har bir so'zning o'z uslubi borki, albatta imlo lug'atidan so'zlarga qarab, ularning uslub xususiyatlarini badiiy matn ichida, so'zlarning birikishida ochiladi.

Masalan: “o'lmoq” so'zi “dunyodan o'tmoq, oyoq cho'zmoq, ko'z yummoq, abadiy uyquga ketmoq, joni uzilmoq, kuni bitmoq, bandalikni bajo keltirmoq,

asfalasofilinga jo'namoq" kabi birikmalarning har birida o'ziga xos stilistik ma'noga ega. Bu stilistik variantlarning har birini o'z o'rnida ishlatishning katta amaliy ahamiyati bor, basharti ular noo'rin qo'llansa qo'pol xato kelib chiqishi mumkin. Masalan: "dunyodan o'tdi" o'rniga "joni chiqdi" deb bo'lmaydi.

Badiiy asarni tarjima qilish uchun tilning lug'at boyligi, chunonchi sinonim va omonimlar, kasb-hunar terminlari, dialektal, eskirgan va vulgar so'zlar, erkalash va kichraytirish, qochiriq, matal va idiomalarni hamda so'zlarning musiqiyliigi-yu, ohangdorligini, ko'p ma'noliligini, tilning talaffuz normalarini, mubolag'a va kuchaytirish xususiyatlari, yumor, hazil-mutoyiba formalarini bilish zarur.

Har bir tarjima turi juda yuksak didga ega bo'lib, butun xalq, omma, jamiyat hayotini o'rganib chiqqan holda, uning ichki kechinmalari, madaniyatini kuylaydi. Har bir tarjima turini mukammal o'rgangan holda ish ko'riladigan bo'lsa, matn tarjimasi va tahlilida hech qanday muammo-yu kamchiliklar bo'lmaydi.

Tarjimaviy asarlar tufayli kitobxonlar jahon adabiyoti durdondlaridan bahramand bo'ladilar, ularning estetik tuyg'ulari oshadi, didlari o'sadi, ularda go'zal narsalar haqida tushuncha paydo bo'ladi.

Tarjima tillarning kamoloti uchun zaruriy vositasifatida, ularning rivojlanish sur'atini jadallashtiradi, lug'at boyligini oshiradi va takomillashtiradi. Tarjima insoniy ma'naviy hayotini boyitadi, ona tilining imkoniyatlarini ro'yobga chiqaradi, uni serjilo qiladi. Ushbu jarayon Vatan adabiyotiga yangi obrazlar, badiiy-tasviriy vositalar hadya etadi. Bir so'z bilan aytganda, tarjima-asliyatni qayta yaratish, qayta talqin etish san'atidir.

Ammo shuni ham nazarda tutish lozimki, mazkur jarayon natijasida ham "tarjima" yordamida ifoda etiladi. Bunda asliyatning o'girmasi bo'lmish ikkilamchi matn nazarda tutiladi.

Shunday qilib, mamlakatimizda tarjimachilik hozirgi kunda o'z tarixiga, rivojlanish xususiyatlariga, an'alariga, tadqiqot metodlariga hamda tamoyillariga ega bo'lgan ijodiy jarayonga aylanib qoldi. Uning nazariy asoslari tadqiqotchilar tomonidan yanada chuqurroq o'rganilmoqda.

1.2 Informativ tarjima haqida umumiy ma'lumot. Informativ tarjimaning jamiyat hayotidagi ahamiyati.

Tillararo muloqotning alohida turi bo'lmish tarjima tillar matnlarining mazmunan teng qiymatliligini taqozo etadi. Asliyat va tarjima matnlari mazmunining o'zaro mos kelishi zarurligi ekvivalentlikni tarjimaning asosiy sharti sifatida tan olishni talab qiladi. Asar tarjimasining to'laonli amalga oshirilishi haqidagi fikr kitobxonning ham, tarjimonning ham orzusi va yakdil intilishi bo'lib hisoblanadi. Nafaqat keng jamoatchilik, balki mutaxassislar tomonidan yaxshi baholangan asar tarjimasi ham to'la-to'kislikka da'vo qila olmaydi.

Bundan asarni to'laonli tarjima qilib bo'lmas ekan, degan fikr kelib chiqmasligi kerak. Butun boshli asarni to'laonli tarjima qilish o'ta murakkab ijodiy jarayon bo'lsada, uni uddalash amaliy nuqtai nazarda mumkin. Bu mas'uliyat tarjimondan har tomonlama chuqur bilim va talent sohibi hamda sabr-toqatli ijodkor bo'lishni talab qiladi. Zero, har qanday til har qanday lisoniy hamda g'ayrilisoniy omillarni tasvirlash layoqatiga ega. Asliyat tilida mavjud bo'lgan biror lisoniy kategoriya, uslubiy vosita, leksik yoki frazeologik birlikka tarjima tilida moddiy va mazmunan aynan mos keladigan lisoniy vosita topilmasligi mumkin. Bunday paytda asliyat tiliga xos bunday lisoniy vositalar yordamida ifoda etiladigan fikr tarjima tilida uni aynan aks ettira oladigan o'zgacha moddiy ko'rinishli ifoda vositalari yordamida adekvat talqin etila olinadi.

Tarjima amaliyoti sirlarini mukammal egallagan va uning nazariyasi bilan puxta qurollangan san'atkorina asliyatga ekvivalent tarjimalar yarata oladi.

Ikki til vositalarini nutqiy darajada qiyoslash tarjima nazariyasi va amaliyoti uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki mazkur jarayon ikki til nutqiy ifodalari orasidagi munosabatni belgilash imkoniyatini beradi. Shuning uchun ham tarjima nutqiy muloqotning alohida turi hisoblanadi. Tarjimaviy qiyos tillarning boshqa xil qiyosiy tadqiqotlaridan bir muncha farq qiladi. U tillarning oddiy strukturaviy qiyosidan, ya'ni sof lingvistik qiyosiy tadqiqotdan shu xususiyati bilan farq qiladiki, tarjimaviy qiyosda tillar tizimlari unsurlarining moddiy jihatdan o'zaro mos kelish-kelmasliklari e'tiborga olinmaydi, balki qiyoslanayotgan tillar

vositalarining badiiy-tasviriy, vazifaviy-uslubiy va pragmatik jihatlardan o'zaro mos kelishi yoki tafovut qilishi asos qilib olinadi.

Tarjima badiiy ijodning eng mashaqqatli sohasi bo'lib, u kishidan bag'oyat katta bilim egasi bo'lishni taqozo qiladi. Shu bilan birga tarjima teng ma'nolilik boshqacha qilib aytganda, muqobillikni taqozo etadi, amalga oshirilgan tarjima aslyatga mazmun jihatdan muvofiq bo'lishi kerak. Bu hodisa hamisha tarjima nazariyasi va amaliyotining asosiy muammolaridan biri bo'lib kelganligi hammaga ma'lum. Tarjima qilinayotgan matn yoki nutqning qandayligidan qat'iy nazar bir tildan boshqa bir tilga tarjima qilish uchun umumiy bo'lgan ikki holat mavjud:

a) dastavval tarjima qilish uchun mo'ljallangan asarni tushunish, uning janrini aniqlash va tahlil qilish lozim. Bu jarayon ona tilida amalga oshiriladi;

b) asar o'girilayotgan tilda muvofiq ifoda vositalarini topish zarur. Bularga badiiy so'z, so'z birikmalari, grammatik shakllar kiradi.

Tarjima tushunchasining ma'nosi juda keng. Bir tildan ikkinchi tilga badiiy adabiyot, dramatik va nasriy asarlar, faning turli-tuman sohalariga doir ilmiy va ilmiy-ommaviy kitoblar, diplomatiya hujjatlari, rasmiy qog'ozlar, siyosiy arboblarning maqolalari va notiqlarning nutqlari, gazeta materiallari, boshqa-boshqa tillarda so'zlovchi, tarjimonning xizmatiga muxtoj bo'lgan kishilarning suhbatlari tarjima qilinadi va turli xil millatga mansub kinofilmlar o'giriladi.

Asl nusxada ifodalangan fikr bo'lak tild ham xuddi aslyatdagidek to'la, aniq va ta'sirchan bo'lishi lozim. Bundan tashqari tarjima o'sha asar o'girilgan tilning andozasiga mos va muvofiq bo'lishi lozim.

“Tarjima” so'zini yuqorida kirish qismida, forsha so'zdan olingani haqida to'xtalib o'tgandik, uning arab tilidagi tarjimasi, “tarjumon”, “tarjuma” shakliga ega. O'zbek adiblari bunday tushunchani, ag'darish, o'g'irish kabi atamalar bilan ifodalashgan. Umuman, tarjima deganda bir tilda yozilgan matn yoki aytilgan nutqning boshqa tilda qayta yaratilishi tushuniladi. Shu ma'noda tarjima xalqlar, millatlararo aloqa vositasi sifatida xizmat qiladi. Tarjima hozirgi davrda jamiyatimizning juda ko'p sohalarida amalda qo'llanilib kelmoqda. Telegraf axborotidan tortib ilmiy-texnikaviy ma'lumotlarga tarjima vositasida bir joydan

ikkinchi joyga yetkaziladi. Yuqoridagilardan tashqari, tarjimaning turlari, rasmiy xabarlar, gazeta materiallari va siyosiy publitsistik adabiyot tarjimasi kabilardan iborat. Bu sohalarining har biri o'ziga xos uslub va talablarga ega.

Tarjima qilishdan maqsad, asl nusxani egallash, saqlash, yetkazish, ammo yangi asar yaratishdan iborat emas. Tarjimaning mohiyati esa qayta yaratishdan iborat.

“Ijodiy jarayon yoki san’at hisoblangan tarjimadan maxsus fan hisoblanmish tarjimashunoslikning bir-biridan farqlamoq lozim. Tarjima nazariyasining vazifasi-asl nusxa bilan tarjima o’rtasidagi nisbat qonuniyatlarini kuzatishdan, alohida xususiy xarakterdan tarjima hodisalaridan tug’ilgan xulosalarni ilmiy ma’lumotlar asosida umumlashtirishdan hamda tarjima amaliyotiga bilvosita ta’sir o’tkazish, uning sifatini yaxshilashdan iborat”.

Millatning eng asosiy belgilaridan biri til va nutq ekanligi hammaga ma’lum. Chunki muayyan bir xalqqa mansub bo’lgan hamma odamlar o’zlari uchun ona tili hisoblangan tilda so’zlashadilar. Biroq dunyoda qancha xalq bo’lsa, tillarning soni ham shuncha deb xulosa chiqarishga asos bo’lmaydi. Boshqacha qilib aytganda, xalqlar soni bilan tillarning soni hamma vaqt ham bir-biri bilan mutanosib bo’lavermaydi. Chunki bir qancha xalqlar bir tilda so’zlashishlari ham mumkin.

Masalan, ingliz tilida faqatgina inglizlarning o’zlarigina emas, balki yer yuzining turli qismlarida yashovchi boshqa xalqlar ham, jumlada, amerikaliklar, shotlandlar, avstraliyaliklar, zelandiyaliklar, Shimoliy Irlandiya va boshqa xalqlarning bir qismi ingliz tilida gaplashadi.

Fransuz tili ham, fransuzlar uchun bu til ona tili hisoblansa, Jazoirda yashovchi hamda Kanadada yashovchi xalqlarning bir qismi ham fransuz tilida so’zlashadilar. Jahonda ikki mingdan ziyod til bo’lgan bir vaqtda bevosita, “tildan-tilga” formulasi bo’yicha tarjima qilish amalda nihoyatda qiyin. Tarjima mamlakatimizdagi qardosh xalqlar o’rtasida do’stona aloqalar o’rnatish va rivojlantirishda barcha milliy madaniyatlarning baynalminal zaminini mustahkanlashda faol rol o’ynaydi. Tarjima- bu umumdavlat ishi. Yangi avlodni tarbiyalashda adabiyot va tarjima ham shunchalik davlat ahamiyatiga molik

hodisadir. Bugungi kunda o'zbek kitobxoni nafaqat o'z klassik va rus adiblarining asarlarini o'qib unda bahra olmoqda, balki tarjima tufayli jahon durdonalaridan ham bahramand bo'lmoqda. Albatta, har bir tarjima turida o'ziga yarasha qiyinchilik va albatta muammolar mavjud. Tarjimashunos olim A.D.Shveyser o'zining "Tarjima jarayonini lingvistik o'rganish muammolari" maqolasida, tarjima nazariyasining lingvistik yo'nalishini topish, belgilash va rivojlantirishda katta ahamiyatga ega, u hayotga real vaziyatga murojaat qilishdek g'oyat muhim omilni inkor etadigan tarjima jarayoni modelini rad qilish kerak, degan fikrni ilgari suradi.

Tarjimon tomonidan tanlangan barcha leksik-frazeologik birliklar stilistik vosita va grammatik shakllar so'zlar orasidagi sintagmatik munosabatlar til vakillari tajribalarida sinalgan silliq, yuqori saviyali adabiy til norma va qoidalaridan chetga chiqmaydigan takomillashgan bo'lishi, originaldagi vositalarga funksional mos kelishi zarur. Tarjima tilining sofligi uning yuqori madaniyati uchun kurash barcha leksik va frazeologik birliklar hamda stilistik vositalarning originalda darajada tabiiy jaranglashi birinchi navbatda, ularning o'z ma'no va funksiyalari hamda o'zlariga xos shakllarda ishlatilishini taqozo etadi.

1) Informativ tarjima tarkibida leksik frazeologik birliklar asar g'oyasini kommunikativ hamda emotsionl-ekspressiv tarzda ifoda etish uchun xizmat qilar ekanlar, ulardan fikr maqsadiga muvofiq, o'rinli va san'atkorona foydalana bilishigina avtor nazarida tutgan ma'no va stilistik funksiyaning nutq madaniyati doirasida talqin etilishini taminlaydi.

2) Ba'zi birliklarga yangi, ularga xos bo'lmagan ma'nolar yuklashga harakat qilishlar o'zini oqlamaydi. Chunki, u yoki bu birliklarning yangi ma'no yoki ma'no ottenkasi kasb etishi bir kishining xohish va xarakatiga bog'liq bo'lmagan, bu narsa hayot ehtiyoji mahsuli sifatida sodir bo'lib, til kollektivi tajribasida ma'lum davr mobaynida sinalishini taqozo qiladi.

3) Original til hamda umuman nutq madaniyati prinsplariga zid holda, tarjima tili so'zlarining o'zaro birikuv traditsiyalariga rioya qilmasdan, ikki va gohi undan ortiq komponentli birikmalar komponentlaridan birini boshqa sinonimli yoki

o'zga biror ohangda so'z bilan almashtirib qo'yish ko'p hollarda nutq madaniyatining buzilib, tarjimaning adekvat jaranglamay qolishiga olib keladi.

4) Birliklar ingliz va rus tillarida lug'aviy leksik ma'nolaridan tashqari qator kontekstlarda jamlash, umumlashtirish, to'dalik, ta'kid, intensivlik kabi ko'pgina ottenkalarni ifoda etib, belgi va harakat ma'nolarini o'tab kelganlarida qator hollarda o'zbek tiliga juft so'zlar bilan tarjima qilinad. Masalan: "health"- "zdaroviye" – "sihat-salomatlik".

5) Tarjima jarayonida ikki til birliklarining lug'aviy ekvivalentligiga yopishib olmasdan, ularning qamrovlaridagi tafovutni hisobga olgan holda, asosan funksional uyg'unliklari haqida o'ylash muhim ahamiyatga ega.

6) Tarjimaga ona tili lug'at tarkibiga aloqasi bo'lgan o'zga tillar birliklarini aralashtirish avtor bayoni hamda personajlar nutqi sofligiga putur yetkazgani holda, kitobxonlarning nazarda tutgan ma'no va funksiyalari to'g'ri qabul qilishlariga ham halal beradi.

7) Tarjima tili so'zlarining o'zaro birikuv traditsiyalariga rioya qilmaslik ham tarjima tili madaniyatining buzilishiga, binobarin, ifodaning adekvat jaranglamasligiga sabab bo'ladi.

8) Har qanday komponentlar uyg'unligi juft so'zlarni tashkil etavermaydi va ularni tasodifiy juftlashishi tarjima tili madaniyati uchun bo'lgan holda, adekvat tarjimaga erishish uchun yo'l qo'ymaydi.

9) Sinonimik- antonimik birliklarda foydalanganda ham ularni rang-barang kontekstlarda ixtisoslashgan holda qo'llanilish xususiyatlarni hisobga olishni ham tarjima tili ravonligini ta'minlashda ahamiyati katta.

Har bir tilning o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi asliyatda foydalanilgan grammatik shakllar tarjima tiliga, ko'r-ko'rona ko'chirishni emas, balki ular vositasida ifoda etilgan fikrlarni muvofiq shakllar yordamida vazifaviy qayta tiklashni taqozo etadi. Tarjima amaliyotiga shu nuqtai nazardan yondalashilgandagina tarjima tilida aslitadagi grammatik shakllarga mos qurilishli vositalarni yo'qligi o'z ahamiyatini yo'qotadi. Binobarin, ikki til shakllarining o'xshashligi tarjimada rasmiy xususiyat kasb etadi.

Shunda tarjimon ham, til o'rganuvchisi ham ko'zlagan maqsadiga erishadi. Zero, tarjima nazariyasining bosh vazifasi nazariyani mustahkamlab, adekvat tarjimani keltirib chiqarish va har xil noo'xshov tarjimalarni oldini olish. Albatta, har bir narsaga qiyinchilik bilan erishilsa, har qanday ish ham muvaffaqiyat qozonadi. Tarjimon tomonidan amalga oshirilgan adekvat tarjima esa asrlarga ellar, millatlarning ko'zgusi bo'lib qolaveradi. Xulosa o'rnida yana shuni aytish mumkinki, asliyatda yaratilgan har qanday asarda, xoh u ijobiy, xoh u salbiy bo'lsin baribir kitobxonga qandaydirestetik zavq olishi mumkin yoki salbiy voqeaga bo'lgan nafrat hissini uyg'otadi. Ana shunday chiroyli asarni yuzaga keltirish uchun avvalo, yozuvchi-shoir va albatta tarjimonning vazifasi juda katta. Oddiygina bir xatolik butun tarjimaning ma'nosini o'zgarishiga olib keladi.

Demak, tarjima o'zgardimi kitobxonga yoki boshqa chet ellik insonga keskin ta'sir qiladi va har ikkalasi uchun tushunarsiz bo'ladi. Haqiqiy tarjimon faqatgina tarjima qilish bilan cheklanib qolmasdan, o'sha ikki tilning grammatik jihatlarini ham o'rganib chiqishi kerak bo'ladi. Informativ hujjatlar tarjimasining bugungi kundagi ahamiyati yuksak darajadiligini e'tiborga olgan holda informativ hujjatlar tarjimasi qiyinchiliklari va o'ziga xosliklariga alohida to'xtalib o'tdik.

Informativ tarjimada asosan umumiy faktlarga tayangan hodisalar bo'lib, bu o'z navbatida tarjimondan aniq va lo'nda tarjima qilish mahoratini talab qiladi. Ushbu tarjima turini tarjima qilish jarayonida, tarjimon dalillar asosida ish ko'rmog'i lozim. Bunda hech qanday qochiriq va qo'shimchalar qo'shilmaydi, ya'ni tarjimon informativ tarjima turini tahlil qilish jarayonida o'zicha hech qanday o'zgartirishlar kiritolmaydi. Bu aksi qilib o'zbek, rus tilidan ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida ayrim artikllar tushirib qoldiriladi, matnlar majhul nisbatta tarjima qilinadi, ayrim shakllar esa qisqartirilgan shaklda, ya'ni abbrevatsiya shaklida matnga kiritiladi. Hatto, ayrim matnlar shu darajada puxta tarjima qilinadiki, ularni o'zbek tiliga tarjima qilishda, tarjimon mahsus frazeologizmlarga tayanadi. Shunday ekan informativ tarjima bilan yuzma-yuz bo'lganimizda, avvalambor lug'atlar bilan emas balki, frazeologik birliklar bilan ishlashimiz lozim. Asosan habar mayliga asoslangan tarjimaning bu turida tarjimon hech

qanday ta'sirchanlikka ega bo'lgan tushunchalarni qo'shmasligi zarur. Nutqni lo'nda-lo'nda idrok etib, tarjima qilishi lozim. Informativ tarjima turining yana bir ahamiyatli tomoni shundan iboratki, bunda asosan ma'no ko'zga tashlanadi. Bu degani shaklning ahamiyati kam bo'lib, unda asosan purma'nolilikka ega bo'lgan ma'no yotadi. Bu matnning qay darajada keng ko'lamga ega bo'lsada, uni kichik hajmda tarjima qilib bo'lsada, ma'nosini berishi lozimligida namoyon bo'ladi.

Gazeta – jurnallar tahlili, ilmiy-ommabop materiallar, publitsistik sferaga ega bo'lgan matnlar tarjimasi shular jumlasidandir.

Informativ tarjima turida xabar asosan chaqiriqqa ega bo'lishi lozim. Ya'ni kitobxon uni sarlavhasiga qaraboq, matnning nima haqida ekanligini bilib olishi, yohud bir qarashdanoq unga qiziqib qolmog'i lozim. Sarlavha bir qarashdanoq kuchli qiziqish uyg'otishi kerak.

Shunday ekan informativ tarjima turi bilan ishlaydigan tarjimon, nafaqat bir tilni ikkinchi tilga tarjima qilishi, balki ijodkor, psixolog bo'lmog'i shart. Matnni tarjima qilib bo'lgandan keyin ham tarjimon psixolog sifatida, uni qaytadan ko'zdan kechirib, har xil xarakterga ega bo'lgan insonlar uchun ham bir xil qiziq bo'lishini taminlagan holda bo'lishi lozim.

Informativ tarjima o'z nomiga xos va mos bo'lgan ravishda, hissiy ta'sirchanlik va bo'yoqdorlikka ega bo'lmay, balki, puxtalik va lo'ndalikka asoslangan bo'ladi.

Tarjimon informativ tarjima turi bilan yuzma-yuz kelganda, uni nafaqat oddiy aholi, balki, mashhur siyosatdonlar, olimlar o'qishini inobatga olgan holda, bekamu-ko'st, mukammallikka ega holda tarjima qilishi kerak. Bundan shunday xulosaga kelish kerakki, tarjimon xoh iqtisodiy, xoh siyosiy sohada bo'lsin u har qanday terminlardan bohabor bo'lishi kerak. Ayni paytda ushbu tarjima hissiy ta'sirchanlik hamda bo'yoqdorlikdan yiroq holda kontekstda berilib, buyruq yoki oddiy xabar shaklida tarjima qilinadi.

Shunday ekan bu jarayonda tarjimon nafaqat tarjimon, balki, har bir sohaning professional egasi bo'lishi talab qilinadi.

1.3 Bugungi kun ommaviy axborot vositalarining tarjimada qo'llanilish xususiyatlari va ularning talqini.

Hozirgi davrda jamiyatimizda ommaviy axborot vositalarining o'zni katta. Ayniqsa bugungi texnika asrida har kuni, har daqiqada radio, televideniye, internet saytlari orqali dunyodagi barcha yangiliklardan voqif bo'lib turibmiz. Xohlaymizmi, yo'qmi, ommaviy axborot vositalari yordamida hamma muhim voqealarni bilib olamiz. Ommaviy axborot vositalaridan tarqatilayotgan xabarlar mamlakatimizning eng chekka qishlog'iga ham bimalol yetib bormoqda. Yurtboshimiz I. A. Karimov takidlaganlaridek:

“Hozirgi davrda matbuot, ommaviy axborot vositalari shunday qudratli kuchga aylanmoqdaki, o'z kelajagini o'ylaydigan har qaysi xalq va millat buni sezmasligi, his etmasligi mumkin emas”. “Istiqlol tufayli mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari rivoji yo'lga qo'yilib, ommaviy axborot vositalari orqali dunyoda sodir bo'layotgan ijtimoiy - siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy o'zgarishlar, ularning mazmun – mohiyatini ochib berish hamda milliy ma'naviyatimiz targ'ibotiga alohida ahamiyat berilmoqda. Bugun televideniye orqali berilayotgan ko'rsatuvlar, radio eshittirishlari va gazeta – jurnallarda e'lon qilinayotgan maqolalar asosan xalqimizning milliy qadriyatlari, urf-odat, an'analari targ'ib –tashviqotiga qaratilgan. I. A. Karimov ta'biri bilan aytganda, hozirgi paytda hayotimizni elektron axborot vositalari, xususan, televideniye va radiosiz umuman tasavvur etib bo'lmaydi. Bugungi kunda ular bir vaqtning o'zida axborot maydoni, ham ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy – ma'rifiy minbar, shu bilan birga insonga madaniy, badiiy-estetik ozuqa beradigan va hordiq chiqaradigan makon vazifasini bajarmoqda. Shuning uchun ham mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari faoliyatini rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratilgan. Bu borada har tomonlama chuqur o'ylangan, ta'sirchan, zamonaviy informatsion usullarga asoslangan, jamoatchilikda sog'lom fikrni shakllantirishga qaratilgan targ'ibot-tashviqot ishlarni mahorat bilan olib borish lozim. Ommaviy axborot vositalarining jamiyatdagi o'zni asosan targ'ibot va tashviqot amallari bilan namoyon bo'ladi.

Uni jamiyat orasida ommaga namoyon qilish ham o'z navbatida chuqur bilim hamda ko'nikma talab qiladi. Shunday ekan ommaviy axborot vositalarini keng jamoatchilikka yoyish hamda uni omma orasida yoyish hamda xabarlar orasida qay biri to'g'ri hamda noto'g'ri ekanliklarini saralash ham o'z navbatida chuqur bilim va iqtidorni talab etadi.

Maqsadimiz – ommaviy axborot vositalarini nafaqat keng jamoatchilikka yoyish, uni targ'ib qilish, balki jamiyatga, omma orasiga tobora, quyundek yopirilib borayotgan xabarlarni saralash hamda ularning keraklilarini jamiyatga yetkazish kabi mahoratga ega bo'lgan yoshlarni yetishtirish. Hozirda turli xildagi internet saytlari bo'lib, ularning soni behisob, ularning aksariyati bilan aloqada bo'layotgani hamda turli saytlarni yoddan biladiganlari bular oshlardir. Jamiyatga kirib kelayotgan xabarlarning oldini olishning iloji bo'lmagani sababli, yoshlarimiz ongi, manaviy madaniyati hamda mafkuraviy immunitetini boyitgan holda, xabarlarni saralash, ularning jamiyatga ta'siri, insonga ayni paytda qaysi xabarning kerakli yohud umuman kerakli bo'lmaganlarini ajratishni o'rgatishdan iborat.

Shunday ekan XXI asr axborot asri bo'lganligi sababli, undan samarali foydalanish va keng jamoatchilikka jalb etish har birimizning muqaddas burchimiz deb bilaman. Axborotlarning qay yo'sinda kirib kelishining umuman ahamiyati bo'lmiz uning mohiyati xabarlarning jamiyat tomonidan saralab olinishidan iborat.

Ommaviy axborot vositalariga ilmiy tomondan, ya'ni tarjima tomonidan qaraydigan bo'lsak, hozirda aynan, jamiyatda OAV tarjimalari keng ko'lamda yuz bermoqda. Xabarlarning yangi yoki muhimligiga qarab tarjimonlarning turli xildagi gazeta matnlarini tarjima qilishlari, uni jamiyat miqyosida tutgan o'rni, yoki radio eshittirishlarda berilayotgan har bir muhim voqeaning hech qanday to'siqlarsiz, o'z vaqtida tarjima qilinib, radio orqali yangrash ham shular jumlasidandir. Yuqorida aytib o'tganimizdek, informativ tarjima aniqlikka xizmat qiladigan bo'lsa, unda tarjima qiliniyotgan matnlar ham aniqlikka ega. Ushbu aniqlik asnosida albatta o'ziga yarasha lo'ndalik, purma'nolik kabi xususiyatlar hukm suradi.

Axborot qanday bo'lishidan qat'iy nazar, tarjimon hech qanday qo'shimchalar kiritmasligi, alohida holda bir davlat tilidan boshqa bir davlat tiliga tarjima qilishda tarjimon, eng avvalo ushbu axborotning shu davlat miqyosida qanchalik ahamiyatga ega ekanligi. Milliy valyutasi, siyosiy hamda iqtisodiy ahvoli, davlat hokimiyati, davlatda ro'y berayotgan o'zgarishlardan voqif bo'lgan holda tarjima qilmog'i lozim. Zeroki ushbu davlatda ro'y berayotgan voqea-hodisa emas, uning tarjimon tomonidan qanchalik to'g'ri tarjima qilish san'ati voqea-hodisaning rivoji sanaladi.

Shiddat bilan butun jamiyatga kirib boradigan ommaviy axborot vositalari xabarlarini qanchalik to'g'ri, aniq ravishda yoritish tarjimonning yuksak mahorati hisoblanadi. Zeroki, davlat ahamiyatiga molik bo'lgan, tarjima qilinayotgan har bir noto'g'ri jumlaning ahamiyati, butun boshli jamiyat hayotining butunlay o'zgarib ketishiga olib keladi. Shunday ekan har bir axborotni, undagi har bir bandni, hattoki har bir tinish belgisini alohida o'rgangan holda tarjima qilish maqsadga muvofiq.

Ochiq axborot tizimlari asosan: axborot agentliklari, gazetalar, jurnallar, jurnal tarzidagi nashrlar, boshqa nashr mahsulotlari, radio, televideniye, audio va video mahsulotlardir. Internet, matbuot xizmati, jamoatchilik bilan aloqalar, davlat, jamoatchilik va boshqa tashkilotlar va muassasalar, reklama agentliklari bo'yicha tuzilmalar ham shular jumlasidandir.

OAV lari bo'lib, vaqtli matbuot, axborot tarqatishning audio, video vositalari, axborot agentliklari, internet –jurnalistika hisoblanadi. OAV ochiq axborot tizimining muhim asosiy qismini tashkil etadi.

I Bob bo'yicha xulosa

Insoniytaning eng mukammal va o'z navbatida millat, elat hamda davlat ahamiyatiga molik bo'lgan ijodi bu –tarjima hisoblansa, ijodkor shak-shubhasiz tarjimon bo'ladi. Har bir millatning ma'nan tanilishi ana shu yuqorida takidlagan ijodkor faoliyati bilan bog'liq. Ushbu tarjima turi qanday sferaga tegishli bo'lmasin, agarda har bir ijod mahsuli mukammallikka erishsa, u har bir millat

tomonidan iliq kutib olinadi. Shunday ekan ushbu ilmiy ishimizda tarjimaning tushunchasini nafaqat ilmiy tomondan, balki uning jamiyat hayotidagi ahamiyati haqida ko'proq tushuncha berishga harakat qildik. Shunday ekan ilmiy ishimizni kirish qismi bilan boshlab, unda asosan tarjimaning mohiyati, kelib chiqishi, umuman olganda insonda nutq faoliyati boshlangandan keyin, tarjimaning paydo bo'lganligini takidlab o'tdik. Asosiy qismda esa I bobni uch qismga bo'lib, 1-rejaning mavzusiga ko'ra, tarjima haqida umumiy ma'lumot, uning turlari va uni alohida fan sifatida tan olinishi haqida o'z fikr va mulohazalarimizni kiritdik.

Ushbu qismda tarjima turlariga alohida to'xtalib, ushbu tarjima turlarining qiyinchiliklari, ahamiyatli tomonlari hamda o'z navbatida muammolari haqida fikr yuritdik. Tarjima turlaridan qay biri tarjimonga ko'proq imkoniyat berishi, qay biri esa tarjimondan tezlik bilan ish ko'rishini tahlil qildik. Muammoli tomoni haqida fikr yuritadigan bo'lsak, ayrim tarjima turlari o'z faoliyatini ilk boshlagan paytlaridan hozirgidek qoidalarga bo'yso'nib emas, balki tarjimonning bilim va malakasiga tayangan holda shakllanib, xalq tili bilan aytganda xom ravishda jamiyatga kirib kelgan, eng achinarlisi shundaki, ular boshqa bir millat vakillariga xuddi shunday xom, ya'ni mukammallikka erishmagan holda yetkazilgan.

Ammo bu kabi qarashlar ham o'sha davrda qonun-qoidalarga bo'ysunmagan holda jamiyatga kirib borganligi, shunga qaramay har bir millat vakillari tomonidan chuqur ta'surotga ega bo'lganligi tahsinga sazovor. Albatta yillar, asrlar sarhadidan o'tgan asarlar, ilmiy ishlar, olimlarning ilmiy izlanishlari tufayli, yangidan-yangi g'oyalarning paydo bo'lishi, onson ongining rivojlanishi bilan tarjimada ham ma'lum qonun-qoidalarga bo'ysungan holda tarjima qilish san'ati vujudga keldi. Ilmiy ishimizning ushbu 1-qismi ana shunday fikr hamda mulohazalar bilan boyitilgan.

Ilmiy ishimizning 2-rejasi esa informativ tarjima haqida umumiy ma'lumot berib, informativ tarjimaning jamiyat hayotidagi o'rni haqida fikr yuritadi. Shunday ekan tarjima turlari orasidagi eng mukammallaridan biri sifatida informativ tarjima turini oladigan bo'lsak, ushbu tarjima turi asosan siyosiy sferaga ega bo'lib, siyosiy terminlar bilan faoliyat yuritishi haqida fikr yuritdik. Undan

tashqari yana informativ tarjima turi gazeta –jurnallar tarjimasini o'z ichiga olib, hech qanday badiiy bo'yoqdorlikka ega emasligi haqida bilimga ega bo'ldik.

Ushbu tarjima turini tarjima qilish jarayonida, tarjima qilinayotgan tilga ayrim grammatik elementlarning ko'chishi, ya'ni asosiy tilda ushbu elementlar mavjud bo'lmasa, ularning tarjima tilidagi qoidaga muvofiq ko'chirilishi, ayrim iboralarning tarjima qilinayotgan tilda mavjud emasligi yoki bo'lmasa ekvivalentligini topgan holda tarjimada berilishining guvohi bo'ldik.

Aynan ana shu rejaning ilmiy ishimizning mavzusi bo'lganligi boisi, uning mukammalliklari haqida fikr yuritishga harakat qildik. Informativ tarjima turining ahamiyatli tomoni shundaki, unda qisqalik, lo'ndalik birinchi o'rinda turadi.

Buni agarda gazeta miqyosida ko'radigan bo'lsak, gazeta sarlavhasi bir qarashdanoq diqqatni tortadigan darajada mukammallikka ega bo'lishi shart, tarjimon butun bir matn mohiyatini ana shu birgina sarlavha tarjimasi bilan ochib berishi zarurligi haqida bilib oldik. Bundan tarjimon nafaqat o'z ishining ustasi sifatida tarjimon bo'lishi kerak, balki, u informativ tarjima turi bilan faoliyat yuritganda, kuchli psixolog ham bo'lishi kerak degan xulosaga keldik. Ushbu tarjima turi tarjimondan o'ta kuchli darajada diqqatni tortadigan ravishda faoliyat yuritishni talab qiladi.

Gazeta – jurnal tarjimasi xabar maylida yozilishi bois, muallif voqea-hodisa to'la o'rganib chiqqan holda unga xohlagancha qo'shimcha qo'shadi, ammo bu qo'shimchalar voqea hodisaga ta'sir qilmagan holda ro'y berishi lozim, tarjimon esa uni tarjima qilish jarayonida voqea hodisani qaytadan mustaqil holda o'rganib chiqib, uni muallif ijodi bilan taqqoslagan holda tarjima qiladi. Ya'ni bunda tarjimon nafaqat muallif ijodidan bahramand bo'ladi, balki, avval xabar bilan tanishadi. So'ngra uni ortiqcha bo'rttirishlarsiz va kamchiliklarsiz xorijiy tilga tarjima qilishining guvohi bo'ldik.

Ilmiy ishimizning so'nggi qismida, bugungi kun ommaviy axborot vositalarining tarjimada qo'llanilish xususiyatlari va ularning talqini haqida fikr yuritdik. Ushbu bobda biz, tarjima nima, u qanday vujudga kelgan, jamiyatda tarjimaning roli, tarjima turlari, mashxur o'zbek va boshqa millat vakili bo'lgan

tarjimonlarning tarjima bo'yicha olib borgan faoliyati, ommaviy axborot vositalari haqida umumiy tushuncha hamda ularning jamiyatdagi roli va ularning tarjimada berilishi haqida to'xtaldik. Har bir qilingan mustahkam tarjima u qanday turgamansub bo'lmasin, uning jamiyatdagi o'rni tarjimonning buyuk mahorati hamda malakasi bilan baholanadi. Ushbu bobda tarjima turlari orasidagi aynan o'xshash hamda farqli qirralarni ko'rib chiqdik.

II BOB

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING INFORMATIV TARJIMA SIFATIDA NAMOYON BO'LISHI

2.1. Informativ tarjima jarayonida turli uslublarning qo'llanilishi

Tarjima- insoniyat yaratgan san'at turlari ichida eng noyobi bo'lib, u butun dunyo madaniyati bilan hamohang bo'ladi. Tarjimaning bebaho ijodi ostida butun xalq manan boyiydi. Shunday ekan u xoh iqtisodiy, xoh siyosiy yoki boshqa sohada bo'lsin, tarjimon kerakli atama va shu sohaga tegishli bo'lgan tushunchalardan foydalanadi.

Tarjimaning turlariga keladigan bo'lsak, uni turlari ko'p bo'lib, ilmiy ishimizning mavzusiga oid bo'lgan informativ tarjima turi haqida to'xtalib o'tamiz.

Informativ tarjima va ilmiy texnik matnlarni tarjima qilishning asosiy xususiyatlaridan biri informativlik, ya'ni ma'lum bir ma'lumotni saqlash, mantiqlilik va aniqlik deganda, biz izchil ketma-ketlikni tushunamiz. Informativ tarjimaning asosiy vazifasi ushbu ko'rsatilgan xususiyatlarni saqlab qolishdir. Chunki informativ matnlar ushbu xususiyatlarini yo'qotsa, u informativligini ham yo'qotadi. Demak tarjima aslligini yo'qotib, hech kimni qiziqтира olmaydigan, oddiy matnga aylanib qoladi. Ko'rinib turibdiki, tarjimonning mahorati va bilimi katta ahamiyatga ega. Shunday ekan tarjimon tarjima qilish jarayonida, alohida xabar berish mayliga to'xtalib, xabar shaklini kuchaytirgan holda tarjima qilishi zarur.

Informativ matnlarni tarjima qilishda obyektivlik ham e'tibordan chetda qolmasligi lozim. Ya'ni tarjimon tarjima jarayonida erkinlikka hamda badiiy bo'yoqdorlikka yo'l qo'yishi mumkin emas. Tarjimon informativ tarjimini tarjima qilish jarayonida, so'z qo'sha olmaydi, shuningdek so'z qoldirib ketishi ham qat'iyan man etiladi.

Buning aksi bo'lgan badiiy tarjimada esa aksincha, tarjimini yanada mukammal qilish uchun, badiiy bo'yoqdorlikdan foydalaniladi, so'z qo'shiladi, ayrim so'zlar olib tashlanadi, ayrim hikmatli so'zlar almashtiriladi, ya'ni

ekvivalenti topiladi. Ammo har bir soʻz, oʻz oʻrniga ega boʻlgan va bir soʻzning tushirilishi toʻgʻirlab boʻlmas xatoga olib kelishi mumkin boʻlgan informativ tarjimada bu mutlaqo mumkin emas. Bir soʻz bilan maʼnoni tubdan oʻzgartirib yuborishi mumkin.

Shunday ekan informativ tarjimada avvalambor tarjima turiga eʼtibor bergan holda oʻrganilib, tarjima qilinadi.

Informativ tarjima haqida soʻz ketar ekan unda asosan uslublarning oʻrni beqiyosdir.

Uyda, koʻchada, insonlarning oʻzaro soʻzlashuvida qoʻllanadigan uslub **soʻzlashuv uslubi** deb ataladi. Bu uslubning adabiy til meʼyorlariga rioya qiladigan koʻrinishi adabiy soʻzlashuv uslubi deb yuritilsa, bunday meʼyorlariga rioya qilinmaydigan koʻrinishi oddiy soʻzlashuv uslubi deb ataladi. Soʻzlashuv uslubidagi nutq koʻpincha dialogik shaklda boʻladi. Ikki yoki undan ortiq shaxsning oʻzaro soʻzlashuvidan tuzilgan nutq **dialogik nutq** deyiladi. Soʻzlashuv uslubida koʻpincha turli uslubiy boʻyoqdor soʻzlar, grammatik vositalar, tovushlar tushib qolishi, orttirilishi mumkin: *Kep qoling! Obbo, hamma ishni doʻndiribsiz-da. Mazza qildik. Ketaqo-o-ol!*

Soʻzlashuv uslubida gapdagi soʻzlar tartibi ancha erkin boʻladi, piching, qochiriqlar, kinoyalar koʻplab ishlatiladi. Koʻproq sodda gaplar, toʻliqsiz gaplar, undalmali gaplardan foydalaniladi.

Fan-texnikaning turli tarmoqlariga doir ilmiy asarlar, darsliklar **ilmiy uslubda** yoziladi. Mantiqlilik, aniqlik bu uslubga xos xususiyatlardir. Ilmiy uslub aniq maʼlumotlar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalar (qoidalar, taʼriflar)ga boy boʻlishi bilan boshqa uslublardan farq qiladi: *Yomgʻir – suyuq tomchi holidagi atmosfera yogʻini. Tomchining diametri 0,5-0,6 mm boʻladi.*

Ilmiy uslubda har bir fanning oʻziga xos ilmiy atamalaridan foydalaniladi, bu uslubda soʻzlar oʻz maʼnosida qoʻllanadi, qoida yoki taʼrifning mazmunini ochishga xizmat qiladigan ajratilgan boʻlaklar, kirish soʻzlar, kirish birikmalar, shuningdek, qoʻshma gaplardan koʻproq foydalaniladi.

Davlat idoralari tomonidan chiqariladigan qarorlar, qonunlar, nizomlar, xalqaro hujjatlar **rasmiy-idoraviy uslubda** yoziladi. Ariza, tilxat, ma'lumotnoma, chaqiruv qog'ozi, taklifnoma, shartnoma, tarjimai hol, e'lon, tavsifnoma, dalolatnoma, hisobot kabilar ham shu uslubda yoziladi. Bunday uslubdagi hujjatlar qisqa, aniq, barcha uchun tushunarli qilib tuziladi. Bu uslubning asosiy belgisi: jumlalarning bir qolipda, bir xil shaklda bo'lishi. Bu uslubda ham so'zlar o'z ma'nosida qo'llanadi, ko'pchilikka ma'lum bo'lgan ayrim qisqartma so'zlar ishlatiladi, har bir sohaning o'ziga xos atamalaridan foydalaniladi, *qaror qilindi, inobatga olinsin, ijro uchun qabul qilinsin, tasdiqlanadi, yuklatilsin, tayinlansin* kabi so'z va so'z birikmalari ko'plab uchraydi. Rasmiy-idoraviy uslubda ko'pincha darak gaplardan, qaror, buyruq, ko'rsatma kabilarda esa buyruq gaplardan ham foydalaniladi. Bu uslubda gap bo'laklarining odatdagi tartibda bo'lishiga rioya qilinadi: *O'z lavozimini suiste'mol qilganligi uchun M. Ahmedovga hayfsan e'lon qilinsin.*

Tashviqot-targ'ibot ishlarini olib borishda qo'llanadigan uslub, ya'ni matbuot uslubi **ommabop uslub** hisoblanadi. Soddalik, tushunarli bo'lish, ta'sirchanlik, adabiy til me'yorlariga rioya qilish bu uslubning asosiy belgilaridan hisoblanadi. Ommabop uslubning radio, televideniyeda ishlatiladigan ko'rinishi og'zaki ommabop uslub deyilsa, gazeta jurnallarda ishlatiladigan ko'rinishi yozma ommabop uslub hisoblanadi. Bu uslubda ijtimoiy-siyosiy so'zlar ko'p qo'llanadi.

Nutq ta'sirchan bo'lishi uning ta'sirchan so'z va birikmalardan, maqol va hikmatli so'zlardan ham foydalaniladi. Bunday uslubda gap bo'laklari odatdagi tartibda bo'ladi, kesimlar buyruq va xabar maylidagi fe'llar bilan ifodalanadi, darak, his-hayajon va ritorik so'roq gaplardan, yoyiq undalmalardan, takroriy so'z va birikmalardan unumli foydalanilad: *1. Azamat paxtakorlarimiz mo'l hosil yetishtirish uchun fidokorona mehnat qilishyapti. 2. Partiya faollari o'zlarining navbatdagi majlisiga yig'ilishdi.*

Voqelikni badiiy obrazlar (timsollar) vositasida aks ettirib, tinglovchi yoki o'quvchiga estetik jihatdan ta'sir qiluvchi uslub **badiiy uslub** deb ataladi. Badiiy asarlar (nazm, nasr va dramatik asarlar) badiiy uslubda bo'ladi. Badiiy asar kishiga

ma'lumot berish bilan birga timsollar (obrazlar) vositasida estetik ta'sir ham ko'rsatadi: *O'lkamizda fasllar kelinchagi bo'lmish bahor o'z sepini yoymoqda*. Badiiy uslubda qahramonlar nutqida oddiy nutq so'zlari, sheva, vulgarizmlardan ham foydalaniladi.

Badiiy uslub **aralash uslub** hisoblanadi, chunki bu uslubda so'zlashuv va kitobiy uslublarga xos o'rinlar ham uchraydi.

Albatta tarjima jarayonida ushbu uslublarning barchasidan faoydalaniladi. Buning natijasida har bir tarjima turi o'z yo'nalishiga ko'ra bo'linadi. Barcha uslub foydalanilgan holatda alohida tarjima turini taqozo etadi. Shunday ekan badiiy tarjima turi yuqorida aytganimizdek, badiiy uslubni taqozo etadi hamda ushbu uslubda tarjima qilinadi.

Har bir uslubning o'ziga xos so'zlari, so'z birikmalari bo'lib, tarjimon tarjima qilish jarayonida avval asar yohud tarjima qilinayotgan material bilan tanishib chiqib, uning qaysi uslubda yozilganligini o'rganib chiqadi va tarjima nihoyasiga yetganicha tarjimon tanlangan uslubdan foydalanadi.

Informativ tarjimada ham xuddi shunday uni tarjima qilish jarayonida tarjimon rasmiy- idoraviy uslub hamda ilmiy uslubdan foydalanadi. Informativ tarjima materialini tarjima qilishdan avval tarjimon, rasmiy-idoraviy va ilmiy uslub me'yorlari bilan alohida tanishib o'tadi. Yuqorida takidlab o'tganimizdek informativ tarjimani tarjima qilish jarayonida, tarjimon hech qanday so'z tushirib qoldirolmaydi va biror so'z ham qo'sha olmaydi. Bunday holatda tarjima qilinayotgan materialning ma'nosi tubdan o'zgarib ketishi mumkin.

Buni biz quyidagi misoldan ko'rib chiqamiz. Bunda korxona menedjerining ishchisiga ogohlantirish uchun berilgan xayfsanini tarjimon bir so'zni almashtirganligi sababli, xodim buni ishdan bo'shatish haqida ariza deb tushungan:

Azim Rakhmanov

Architect

309, Mirzo Ulughbek Street

March 2. 2007

Dear Mr Rakhmonov,

Our firm wants to inform you that we can not tolerate such behavior as coming late and speaking in unacceptable tone with our employees. Appropriate action will be taken and we shall take 20% from your salary. We want to inform you that we shall give you the last chance.

I am, yours truly, Frank Shin.

Azim Rahmonov

Me'mor. 309, Mirzo Ulug'bek

2-mart 2007-yil

Hurmatli janob Rahmonov,

Bizning firmamiz sizning kech qolishingiz va kasbdoshlaringiz bilan to'g'ri kelmaydigan muomalangiz bilan ogohlantirmoqchi. Tegishli choralar ko'riladi va biz oylik ish haqi maoshingizdan 20% ni ushlab qolamiz. Shuningdek biz sizga oxirgi imkoniyatni bermoqchi emasligimiz haqida ogohlantirmoqchimiz.

Hurmat va ehtirom ila Frenk Shing.

Quyidagi xatdan ko'rinib turibdiki, e'tiborsizlik qilgan va shall fe'liga (yordamchi feliga) not inkor yuklamasini qo'shib ketgan. Shu sababli ikki tarafdin anglashmovchilik yuz bergan. Bizning vazifamiz shu kabi anglashmovchiliklarni oldini olish va bunday xatoga yo'l qo'ymaydiga tarjimonlarni yetishtirib chiqishdan iborat. Informativ tarjima jarayonida tarjimondan talab etilayotgani esa faqatgina qobiliyat va malaka, ya'ni o'z ustida ishlash. Yuqoridagi kabi elementar xatoliklarga yo'l qo'ymaslik. Shuni aytish joizki, informativ tarjima o'z navbatida xalqaro ahamiyatga ega. Unda bunday kelishmovchiliklarning yuz berishi esa butun bir xalqning madaniyatiga zarar yetkazish bilan baravar hisoblanadi.

Informativ tarjima faqat gazeta, jurnallar hamda rasmiy xatlar ustida amalga oshiriladigan tarjima hisoblansa, xatlarga bo'lgan umumiy talablar xizmat maktublariga ham birga faqat shu turga xos bo'lgan xususiyatlarni aytib o'tish maqsadga muvofiq. Ish yuzasidan tayyorlanadigan xatlar imkoni boricha qisqa, aniq bo'lishi, asosiy maqsad puxta tushuntirilishi va u sodda tilda, hammaga tushunarli holda yozilgan bo'lishi ahamiyatlidir.

Ularda ko'p ma'noli so'z, ishlatishdan chiqib ketgan arxaik, balandparvoz, dabdabali so'z va iboralarni ishlatmaslik lozim. Xatni ko'proq og'zaki nutqqa yaqinlashtirish tavsiya etiladi. Yozilgan xat o'quvchida yaxshi niyat va hamkorlik ruhini uyg'otishi zarur. Vaholanki xat o'zida salbiy xabarni tashisa ham u rasmiy idorviy uslubga xos bo'lgan, atamalarni o'z ichiga olgan bo'lishi lozim. Bu xatning ishchanligi va sifati ko'rsatkichidir. Nazarda tutilgan mavzuni qog'ozga tushirishda ham ba'zi rasmiyatchiliklarga rioya qilingani: xat ixcham bo'lishi kerak, u qancha kichik bo'lsa, o'ng tomondan qoldiriladigan hoshiya shuncha katta bo'ladi. Agar maktub bir nechta gapdangina tashkil topgan bo'lsa, unda 4-4,5 santimetrli hoshiya qoldiriladi. Maktub katta bo'lsa, hoshiya kichikroq qoldiriladi. Abzatslar orasidagi oralqni oddiy qatorlardagina ikki marta kattaroq qoldirish lozim. Agar xat bir betga qolsa, unda ikkinchi betgan kami uch qator o'tkazish tavsiya etiladi. Yakunlovchi gap bundan istisno. Qog'oz va hoshiya hamma betlarda bir xil bo'lgani ma'qul.

Xizmat maktubi yozishning satandarti yaratilgan bo'lib, u butun dunyoda qo'llanadi. Xizmat xatlarini yozishda obyektiv yondashish zarur. Bu turdagi xatlarda his-tuyg'ularga o'rin yo'q. Ya'ni bunda his –tuyg'u gaplar ishlatilmaydi. Qisqa va aniq tarzda maqsadni to'liq bayon qilishi lozim. Bunda informativ tarjima aniqlikka, informativlikka, ya'ni xabar shakliga ega bo'lishi lozimligi maqsadga muvofiq.

Shunday ekan informativ tarjima badiiy bo'yoqdorlikdan yiroqda, ta'sirchanlikka ega bo'lmay, faqatgina soddalikka ega bo'lib, xabar mayli shaklida bo'lishi zarur.

2.2 Ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilinayotgan matn va xatlarning, tillar o'rtasida aynan o'xshash va farqli tomonlari

Tarixdan ma'lumki azal-azaldan turli xildagi tarjimalar bo'lib, ularning ahamiyati juda katta bo'lgan. Tarjimalar orqali turli xil fanlar dunyo yuzini ko'rgan. Turli xil kashfiyotlardan voqif bo'lingan. Xalqaro aloqalar yuzaga kelgan. Bu esa o'z navbatida mamalakat rivojiga olib kelgan. Shuni alohida takidlab o'tish joizki, o'z navbatida o'zbek xalqiga tegishli bo'lgan shox asarlar,

hikmatli so'zlar va hattoki ertaklar ham dunyoning barcha tillariga tarjima qilingan. Xususan Abu Ali ibn Sinoning "Tib qonunlari" asari, Ulug'bekning "Ziji dadidi ko'ragoniy", Alisher Navoiyning "Xamsa" si, Amir Temurning "Temur tuzuklari" asarlari butun dunyo tillariga tarjima qilingan.

Shu o'rinda adabiyotning o'rni beqiyos. Barcha o'zbek yozuvchi va shoirlarning asarlari xorijiy tillarga bevosita va bilvosita tarjima qilingan. Buning aksi tariqasida, dunyoning mashxur yozuvchi adiblarning turli xil noyob asarlari ham o'zbek tiliga bevosita va bilvosita tarjima qilingan. Taniqli shoir, yozuvchi va adiblarimiz Usmon Nosir, G'afur G'ulom, Zulfiya, Maqsud Shayxzoda, Erkin Vohidovlar xorij asar va sh'erlarini mohirona tarzda, bevosita va bilvosita o'zbek tiliga tarjima qilishgan.

Albatta har bir asar yohud matnni tarjima qilish jarayonida, juda ko'p qiyinchiliklar, o'ziga yarasha chalkashliklar vujudga keladi. Aytaylik biror bir millatga xos bo'lgan ibora yoki maqol boshqa bir millat vakillari tomonidan butunlay teskari shaklda, yoki umuman ishlatilmasligi ham mumkin.

Tarjimon ularning ekvivalentini topgan holda, tarjima qilinayotgan tilda uchramaydigan iboralarni esa tushuntirgan holda, lo'nda qilib tarjima qiladi. Ammo bundan mustasno holatlar kuzatilishi ham mumkin. Agarda tarjimon biror bir iborani tarjima qilishi jarayonida uni noto'g'ri tarjima qiladigan bo'lsa, bu bir millatga qilingan hurmatsizlik hisoblanadi.

Shunga o'xshash qiyinchiliklarni oldini olish maqsadida tarjimon, avval o'sha millat vakillari bilan o'zaro fikr almashgan holda madaniyatidan boxabar bo'lishi kerak, nazarimda.

Ammo informativ tarjimada bunga o'xshash qiyinchiliklar deyarli kuzatilmaydi. Fikr ixcham, mazmuni tushunarli bo'lganligi sababli tarjimon bunday qiyinchiliklarga duch kelmaydi. Tarjimon alohida millat vakillari bilan tanishishi ham zaruriy holat hisoblanmaydi.

Ingliz tilida so'zlashuvchi mamalakatlarning ko'pligi tufayli, tarjimondan faqatgina xat yozish usulidan boxabarlik kuzatiladi xolos.

Buyuk Britaniya va boshqa ingliz tilida gapiruvchi mamlakatlarning xat yozish usuli boshqa davlatnikidan farq qiladi. Xatlar ikki turga bo'linadi: shaxsiy va xizmat xatlari.

Shaxsiy xatlar quyidagi qismlardan iborat:

- 1) Xat yuboruvchining manzili;
- 2) Sana;
- 3) Salom yoki tabrik;
- 4) Xatning asosiy mazmuni yoki qismi;
- 5) Xatni yakunlovchi so'z yoki gap;
- 6) Imzo;

Yuboruvchining manzili xatning o'ng tomoni yuqori burchagida yoziladi. Yozilish tartibi tekis, tagma – tag usul (block style) da yoki ketma – ket siljigan qator usuli (intended style) da bo'lishi mumkin. Lekin, ular bir-biridan alohida qilinib yozilishi shart. Har bir qatordagi so'zdan keyin vergul va oxirgi qatordagi so'zdan keyin nuqta qo'yiladi.

Manzilning yozilish tartibi quyidagicha: uy raqami, ko'cha nomi, shahar yoki qishloq, davlat (Britaniya) yoki shtat (USA), mamlakat.

Tez-tez ishlatiladigan qisqartmalar: St - (str emas) Street, Rd – Rood, Sq – square, ave – avenue;

Ammo Drive va Lone so'zlari qisqartirilmaydi.

Sana adresining tagida to'lig'icha yoziladi.

Masalan:

10 th October 1976	10 th Oct. 1976
October 10 th 1976	Oct. 10 th , 1976
October 10, 1976	October 10, 1976

Ingliz tilida oylar nomi quyidagicha qisqartirilishi mumkin: Jan, Feb, Aug, Sept, Oct, Nov:

Ammo March, May, June, July bu oylar qisqartirilmaydi.

Salom yoki tabrik, chap tomondan xat boshidan yoziladi. Odatda, bu nutq “Dear” so'zi bilan boshlanadi. Chunki, ushbu so'z bu holatda hech qanday

muhabbat yoki biror bir yaqinlik ma'nolarini bildirilmaydi. Do'stga yozilayotgan xat "Dear Friend" deb boshlansa, unchalik ma'qul bo'lmaydi. "Dear Jack" yoki "Dear Susan" deb yozilsa, asl ingliz tilidagi xatlarga mos tushadi.

Agarda siz shunchaki tanish bo'lgan insoningizga xat yo'llamoqchi bo'lsangiz, unda xatni "Dear Mr" shaklida boshlashingiz ma'qul. Xatda xat oluvchi kishi nomi yozilib, undan keyin vergul belgisi qo'yiladi, undov emas.

O'zbek tilida esa buning aksi sifatlari ham bor, murojaat qilinayotgan inson yoki ismidan so'ng undov belgisi qo'yiladi.

Xatning tuzilish qismi bu uning asosiy qismi (main part) hisoblanadi. Bu punkt "Dear" so'zining o'ng tomondagi oxirgi harfining tagidan boshlanadi. Agar xat bir necha mavzularni o'z ichiga qamraydigan bo'lsa, har bir mavzu yangi xat boshidan boshlanishi kerak.

- a) Introduction (tanishuv)
- b) Purpose, news (maqsad va yangilik)
- c) Conclusion (yakunlovchi qism)

Odatda xatning bu qismi yaqindan olingan xatga aloqador yoki unga javoban, yoki xat yozishga undagan voqea – haqida ma'lumot berishi bilan boshlanadi.

Quyidagi ishlatilishi mumkin bo'lgan frazalardan misollar:

I have just received your letter and I am writing at once because . . .

I'm sorry it has taken me so long to reply to last letter but . . .

What a surprise it was to get a letter from you after all this time . . .

I am very sorry to hear . . .

I feel sure that you will be interested to know . . .

Xatning asosiy qismi hech qanday qoida yoki ramkalarga amal qilmaydi, ya'ni uning uzunligi, tuzilishi, so'zlarni qanday ishlatish yoki ulardan qanday foydalanishi, xat yozuvchi kishi va uni oluvchi kishi o'rtasida maqsad va yaqinlik aloqalariga bog'liq.

Yakunlovchi qism, odatda, xatni yakunlovchi iliq so'zlar bilan tugallanadi. Bunda uni tezroq ko'rishni istagani, hurmatini yoki uni esdan chiqarmaganligini yoki uzurini so'z bilan ifodalashi mumkin.

Masalan:

I hope to see you soon

Please, remember me to . . .

Xatni yakunlovchi soʻz yoki gap maqtov xarakterga ega boʻlib, xatning yakuni hisoblanadi. Quyidagi berilgan misollar hozirgi kunda shaxsiy xatlarda tez-tez ishlatiladi.

Love – qarindoshlarga yoki doʻstlarga;

Yours – unchalik yaqin boʻlmagan isonlarga;

Yours affectionately – shunchaki tanishlarga;

Yours sincerely – rasmiy munosabatda boʻlgan insonlar oʻrtasida.

Yuqorida koʻrsatilganidek, xatni yakunlovchi soʻz bosh harf bilan yoziladi va vergul bilan ajratiladi.

Xat imzo yakunlovchi soʻz tagida qoʻyiladi. Imzo xat yozuvchi bilan uni oluvchi oʻrtasidagi munosabatga asosan toʻliq ism bilan, familiya yoki otasining ismi bilan bigalikda qoʻyilishi mumkin. Imzo haqiqiy boʻlishi lozim.

Agar xat yozuvchi kishi xatni tugatib imzolaganidan soʻng, biror bir fikr esiga kelib qoʻshimcha qilmoqchi boʻlsa, PS – postscript punkitiga qoʻshimcha maʼlumot sifatida kiritib qoʻyishi lozim.

Konvertning pastki qismiga xat kimga yuborilayotgan boʻlsa, oʻsha kishining ismi adresi yoziladi. Agar xat egasiga yetib bormasligi mumkin degan biror shubha boʻlsa, konvert ustiga xatni qaytarib joʻnatish mumkin boʻlgan manzil yozilishi mumkin.

Masalan quyidagi soʻzlar bilan;

Please forward,

Or If away, please forward,

Or If undelivered, please return to . . .

Boshqa hollarda Britaniyada xat yuboruvchining ismi va adresi, odatda, konvert ustida yoziladi.

Xizmat maktubi bu – jismoniy yoki yuridik shaxsning ishga ta’luqli bo’lgan, aniq bir maqsadni ko’zlagan, tashkilot yoki jismoniy shaxsga yozilgan xati. Bu turdagi xatni yozishda ma’lum bir uslubga amal qilishi lozim.

Xatning ikkinchi turi xizmat xatlarini yozishning ham o’ziga yarasha qoidalari mavjud. Xatning boshlanishi faqat yuboruvchining emas, balki qabul qiluvchi tashkilot yoki shaxsning to’liq manzili ko’rsatilishi lozim. Janob, xonim yoki tashkilotning nomi keltiriladi. Agar maktubni yo’llayotgan shaxs sizga tanish bo’lsa, maktubni “hurmatli” so’zi bilan boshlashimiz maqsadga muvofiq.

Xizmat maktublarining asosiy qismi odatda quyidagicha tashkil topgan:

a) Kirish;

Maktubdan yuborishdan ko’zlanayotgan maqsadga ta’lluqli reklama yoki xabarni keltirib o’tishi mumkin.

b) Ma’lumot

c) Kirish qismiga tegishli bo’lmagan ba’zi ma’lumotlarni keltirish orqali ham ko’zlangan maqsadga, ya’ni nomani qabul qiluvchining e’tiborini jalb qilishi mumkin.

d) Asosiy maqsad

Maktubning eng muhim qismi hisoblanadi. U aniq tarzda va obyektiv yondashilgan holda yozilishi shart. Unda balandparvoz, dabdabali so’zlarsiz maqsadni bayon etishi kerak.

e) Yakunlovchi qism

Xatni yakunlab, ba’zi xushmuomalali jummalarni keltirib o’tish nomaning yakunlovchi qismi hisoblanadi. Oxirida xatni qabul qiluvchining tanishi darajasiga ko’ra bitiruv, ya’ni yakunlovchi so’zlar tanlanadi.

Masalan:

O’zaro xat oluvchi va xat yozuvchi bir-biriga tanish bo’lsa, “Your faithfully ” yoki “Yours affectionally” jummalari tanlanadi. Agar ular bir-birlarini o’zaro tanishmasa, ismlarini keltirish kifoyalanadi.

i) Imzo

Xizmat xatlarida turli ko'rsatma, yo'llanma, farmoyish, yo'riqnomalar o'z aksini topgan bo'ladi. Bunday maktublar doimo ikki talabga javob berishi:

- a) Ko'rsatma va yo'riqnomalar aniq hamda izchil bo'lishi;
- b) Xatdagi muomala vazmin va nafsoniyatga tegmaydigan bo'lishi lozim.

Maktublarda: "Ko'rsatmalarim aniq" yoki "Men buni soddaroq tushuntirishga harakat qilaman" deb yozish maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Informativ va ilmiy-texnik matnlarning tarjima qilishning asosiy xususiyatlaridan biri informativlik, ya'ni ma'lum bir ma'lumotni saqlashi lozim.

Informativ tarjimaning asosiy vazifasi ushbu ko'rsatilgan xususiyatlarni saqlab qolish va o'quvchiga yetkazish. Bu tarjimada informativlik ham saqlanishi lozim.

Quyida xizmat maktubini ko'rib chiqamiz va tahlil qilamiz.

Smith and Sons

25 Main Street

Manchester

9th February 2005

Mr. John Taylor

97 Cranbourn Street

London.

Dear Sir.

We beg to inform you that by order and for account of Mr. Suiland of Leeds, we have taken the liberty of drawing upon you for 25 pounds at the three month date to order of Mr Sharp. We gladly take this opportunity of placing our services at your disposal and shall be pleased if you frequently make use of them.

Respectfully your,

Smith and Sons.

By John Crawford.

Ko'rib turganimizdek bu xat barcha ko'rsatmalarga va belgilab berilgan tartibga amal qilingan holda yozilgan. Xuddi shu maktubning tarjimasini ko'rib chiqib, mavjud bo'lgan o'xshashliklarni tahlil qilamiz.

Smit hamda o'g'illari

Meyn Strit, 25-uy

Manchester

9-fevral 2005-yil

Janob John Teylor

Krenberni Strit, 97-uy

London

Qadrli ser!

Iftixor bilan sizga ma'lum qilamanki, Lidslik janob Suilandning ko'rsatmasi asosida va uning hisobidan janob Sharp nomiga uch oylik muddatga 25 funt o'tkazishga jur'at etdik. Sizga xizmat ko'rsatish imkoniyati tug'ilganidan behad xursandmiz. Siz bunday imkoniyatni bizga tez-tez yaratib turasiz degan umid bilan javobingizni kutib qolamiz.

Sizga ehtirom bilan,

Smit hamda o'g'illari

Topshiriqni bajaruvchi: Jeyn Krouford.

Originalda berilgan "Sir" so'zini ma'no jihatdan to'g'ri keladigan, ammo xizmat maktublariga mos kelmaydigan "janob" so'zi bilan almashtirmasdan, "ser" so'zini saqlab qolishni joiz deb topdik.

Chunki "janob" so'zi informativ tarjimada qo'llanilmaydi. Lekin bu faqat murojaat qilingandagina, korxonalarning nomi bundan mustasno.

Masalan:

"Mr. Smith and Sons" manzili "janob Smit va o'g'illari" deb tarjima qilish mumkin. Bu qoida faqat murojaatlargagina tegishli, ya'ni maktub boshida "janob" deya murojaat etish biznes maktublari ma'nosiga to'g'ri kelmaydi, deb takidlanadi.

Ushbu tahlilda ham xatni tarjima qilish jarayonida rasmiy hujjatlarda qanday so'zlar hamda murojaatlar qo'llanilishini ko'rib chiqdik.

2.3 Xatlar tarjimasida uslubiy vositalarning qo'llanilishi va ularning tahlili

Informativ tarjima yuqorida takidlab o'tganimizdek, rasmiy aloqalar hamda rasmiy hujjatlar bilan ishlaydigan tarjima turi bo'lib hisoblanadi. Ilmiy ishimizning eng oxirgi yakunlovchi rejasida biz, aynan xatlar tarjimasidan namunalar keltiramiz. Tahlil jarayonida tarjima tilidan tarjima qilinayotgan tilda uchraydigan ayrim kamchiliklar va tillar orasidagi o'xshashliklar bilan tanishib o'tamiz.

Xatlarni tarjima qilish jarayonida ko'cha, maydon nomlari boshqa tilga to'liq tarjima qilinadi, ammo aynan, "street", "square" kabilar o'zbek tiliga tarjima qilinmay aynan, ingliz tilida qanday bo'lsa, shundayligicha tarjima qilinadi. Bu kabi tarjimalar ba'zi xatlarda tarjima qilinish xususiyatiga ega. Bu albatta bundan mustasno holat hisoblanadi.

Quyida murojaat xatini ko'rib chiqamiz.

Forsyte, Bustard and Forsyte,

Commissioners for Oaths,

2001, Branch, Lane Street, Poultry

May 17, 1887.

Dear Bosinney,

I have received your letter, the terms of which not a little surprise me. I was under the impression that you had and have had all along, a "free hand", for I do not recollect that any suggestions I have been so unfortunate as to make, have met with your approval . In giving you, in accordance with your request, this "free hand" , I wish you to clearly understand that the total cost of the house as handed over to me completely decorated, inclusive of your fee/ as arranged between us/, must not exceed twelve thousand pounds – 12,000. This gives you an ample margin and as you know is far more than I originally contemplated.

I am, Yours truly, Soames Forsayt.

Forsayt, Bastard va Forsayt.

Ish boshqaruvchi.

2001, Branch-Leyn ko'chasi,

Poltri

Azizim Bosniy!

Xatingiz meni juda hayratda qoldirdi! Menimcha, siz doim mutlaq “erkin harakat” huquqidan foydalanib keldingiz, shekilli. Chunki, mening takliflarimdan birortasini e’tiborga olganingizni eslay olmayman. Iltimosingizga ko’ra “to’liq erkin harakat” huquqini beraman sizga. Men uyning bezagi bilan, sizning huquqingizni ham qo’shganda (kelishib olganimizdek), 12000 funtdan oshmasligini xohlardim. Bu pul sizga juda katta imkoniyatlar yaratib beradi va o’zingiz bilganingizdek, u meni dastlabki hisob-hitoblarimdan ancha ortiq.

Xizmatingizga doim tayyor Some Forsayt.

Ushbu xatimizda aynan yuqorida qayd etganimizdek “street” so’zi o’zbek tiliga aynan tarjima qilinmay, ingliz tilidagi varianti bilan berilgan. Ushbu murojaat xatida rasmiy uslubni ko’rishimiz mumkin.

Bunga javoban yozilgan xat tarjimasi.

Philip Baynes Bosinney,

Architect

309, Sloane Street.

May 18, 1887

Dear Forsayt,

If you think that in such a delicate matter as decoration I can bind myself to the exact pound, I am afraid you are mistaken. I can see that you are tired of the arrengrment and of me and I had better, therefore, resign.

Yours faithfully,

Philip Baynes Bosinney

Fillip Beynz Bosini

Me’mor

309-uy, Sloun strit

18-may, 1887-yil

Azizim Forsayt!

Agar siz uyni beztishdek nozik ishda aniq bir narxni oldindan aytishim mumkin deb o'ylasangiz, xato qilasiz. Ammo, siz bu shartnomadan ham, mendan ham bezor bo'lganingizni sezib turibman. Shuning uchun ham bu ishdan voz kechishni afzal ko'rdim.

Sizga hamisha sodiq,

Fillip Beynz Bosini

Ilk xatga javob tariqasida yozilgan xatda ham eng avvalo xushmuomalalikni hamda xat norozilik shaklida yozilgan bo'lsada, xatni eng oxirgi qismida "Sizga hamisha sodiq" kabi so'zini ko'rib turibmiz. Bu esa xat oluvchiga na salbiy hamda na ijobiy tasir ko'rsatadi. Tahlil jarayonida buni alohida takidlab o'tish joiz. Xat qanday maqsadda yozilgan bo'lsada, uning ijobiy xarakterga ega bo'lgan so'zlar bilan yakunlanishi xat yozish qonun qoidalariga kiradi.

Xatni aynan informativlikka ega ekanligini xat yozuvchilarning bir-birlariga murojaat qilish jarayonida keltirilgan pul miqdori, tavoze bilan qilingan so'zlar ("sizga hamisha sodiq", yoki "azizim") da hamda xat ma'nosidan kelib chiqqan holda rad etilsada, ijobiy xarakterga ega bo'lgan so'zlarda ko'rishimiz mumkin. Ushbu xat uy xo'jayini va me'mor o'rtasida yozilganligiga qaramay, unda ma'no keng, fikrlar lo'nda keltirilgan. Ushbu informativ xarakterga ega bo'lgan xatni tarjima qilish ham o'z navbatida tarjimondan katta malaka talab qiladi. Tarjimon har qanday sohaga tegishli bo'lgan xatni tarjima qilar ekan eng avvalo u kimlar o'rtasida yozilayapti, nima maqsadda yozilyapti kabi savollar bilan qiziqishi kerak, nazarimda.

Shuni ham alohida takidlab o'tish joizki informative tarjimada ilmiy-ommabop hamda rasmiy uslub hukm surarkan u hech qanday qo'shimchalarsiz, badiiy bo'yoqdorlikdan yiroqda holda, sodda tilda tarjima qilinishi shart.

Quyida yuqorida uy xo'jayini hamda me'mor o'rtasidagi ayrim "kelishmovchiliklar" ga barham berilganini va yakdil xulosaga kelingan, uy xo'jayinining me'morga yo'llagan xati bilan tanishib chiqamiz.

62, Montrellier Square, S. W

May 19, 1887

Dera Bosinney,

I think that in both our interests it would be extremely undesirable that matters should be so left at this stage. I did not mean to say that, if you should exceed the sum named in my letter to you by ten or twenty or even fifty pounds there would be any difficulty between us. This being so, I should like you to reconsider your answer. You have a "free hand" in the terms of this correspondence and I hope you will see your way to completing the decorations, in the matter of which I know it is difficult to be absolutely exact.

Yours truly,

Soames Forsyte.

Ushbu xatning tarjimon tomonidan qilingan tarjimasini ko'rib chiqib, tahlil qilamiz.

"Monpele"- skver, 62

19-may 1887-yil.

Azizim Bosinni!

Mana bu ishni shu ahvolda tashlab qo'yish ikkalamizning manfaatimiz uchun ham bir xilda zid bo'lsa kerak, deb o'ylayman. Xatimda ko'rsatilganidek, uyning xarajatlarini 10, 20 va hatto 50 funtgacha oshishi o'rtamizda qandaydir tushunmovchiliklarga olib kelishini umuman xohlamasdim. Avval yozganimdek sizga "erkin harakat" qilish huquqi berilgan. Uyning bezatishdek nozik ishning xarajatlariga meni aqlim ko'p ham yetavermaydi.

Shuning uchun bu ishni o'zingiz bilganingizdek tugating.

Xizmatigingizga doim tayyor,

Some Forsayt.

Vanihoyat ushbu xatimizda ikki inson orasidagi muammoning murosasiga kelganimizni guvohi bo'ldik. Yuqoridagi "kelishmovchiliklar" o'z nihoyasiga yetdi. Endi xatning tarjima jarayonidagi tahliliga qaraydigan bo'lsak, kirish qismidan ham oldinroq berilgan manzilga qaraydigan bo'lsak, unda aynan "square", ya'ni maydon so'zi tarjimada, xuddu asliyatdagidek aks ettirilgan. Unda

aynan “maydon” deb emas, balki o’zligicha “skver” deb berilganligi informativ tarjimaning ma’lum qonun-qoidalariga misol bo’ladi.

Tarjima jarayonida ushbu xat hech qanday qo’shimcha va o’zgartirishlarsiz, informativ tarjima qonun-qoidalariga bo’ysungan holda tarjima qilingan.

II Bob bo’yicha xulosa

Ushbu bobimiz ilmiy ishimiz mavzusini ochib bergan bob bo’lib hisoblanib, ushbu bobda, tarjima turlarining qaysi uslublarga xos ekanligi haqida fikr yuritdik. Shunday ekan yuqorida aynan uslub nima, uning tarjima jarayonidagi o’rni haqida to’xtalib o’tdik. Har bir uslubning o’ziga yarasha so’z va iboralari bo’lib, ularning alohida ravishda qaysi tarjima turiga xos ekanligi haqida to’xtalib o’tdik.

Shu borada so’z yuritar ekanmiz, aynan informativ tarjima turiga mansub bo’lgan, uslublar haqida ham to’xtalib o’tdik. Ushbu bobimizdagi bir reja uslub va uning tarjima dagi roli haqida bo’ladigan bo’lsa, keyingi rejalarimiz esa ingliz tilidan o’zbek tiliga tarjima qilinayotgan matn va xatlarning tillar o’rtasida aynan o’xshash va farqli tomonlari haqida bo’ladigan bo’lsa, oxirgi rejamiz xatlar tarjimasida uslubiy vositalarning qo’llanilishi va ularning tahliliga bag’ishlangan.

Har bir rejaning yoritilishi aynan mavzuning dolzarbligi hamda ochib berilishi bilan yuritilgan. Xatlar tarjimalarida esa aynan ikki til orasidagi tahlillarni ko’rib o’rganib chiqdik. Undan tashqari yana maktublarni ikki guruhga bo’lib, ularning ham aynan o’xshash va farqli tomonlarini ko’rib chiqdik. Ushbu xatlar shaxsiy va xizmat maktublariga bo’linib, ularning o’ziga yarasha kirish hamda yakuniy qismlarini o’rganib chiqdik.

Xulosa qilib aytganda, xatlar insonlar orasidagi muloqotni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Asosan xizmat maktublari tarjimasi biznes olamida juda katta rol o’ynaydi. Chunki, biznes ayniqsa, katta biznes ikki chet ellik firmalar o’rtasida amalga oshiriladi. Bu muloqotda esa eng asosiy o’rinni xizmat maktublari va ularning tarjimasi egallaydi. Chunki xizmat maktublarida har bir so’z yoki belgi nihoyatda katta ahamiyatga ega. Bir ibora, jumla yoki so’zning o’rganishi to’g’irlab bo’lmas xatoga olib kelishi mumkin. Buni chetlab o’tish

uchun esa tarjimondan nihoyatda katta bilim va mahorat talab qiladi. Bu unsurlar orasidan ko'nikma ham katta o'rin tutadi. Chunki ko'nikmasi yo'q tarjimon yaxshi bilim bilan ham informativ tarjimani amalga oshirolmaydi.

Buyuk tarjimashunos olim G'aybullas-Salomning aytishicha, informativ tarjima, ya'ni hujjatlar tarjimasi qiyin va shu tobda nihoyat qiziq san'atdir. Ushbu ilmiy ishimiz tarjimonlarning qiyinchiliklarini sal bo'lsada yangilash – tarzida deb o'ylaymiz. Har xil tilning o'ziga xos xususiyatlariga ega ekanligi aslyatda foydalanilgan grammatik shakllarni tarjima tiliga ko'r-ko'rona ko'chirishni emas, balki ular vositasida ifoda etilgan fikrlarni muqobil shakllar yordamida vazifaviy qayta tiklashni taqozo etadi. Tarjima amaliyotiga shu nuqtai nazardan yondashilgandagina tarjimatilida aslyatdagi grammatik shakllarga xos qurilishli vositalarning yo'qligi o'z ahamiyatini yo'qotadi. Binobarin ikki til shakllarining o'xshashligi tarjimada rasmiy xususiyat kasb etadi.

Ushbu jarayonda tarjimonning qilayotgan tarjimasining o'xshovsizligiga leksik, grammatik, stilistik va shu kabi muammolar asos bo'ladi.

Masalan, grammatik tushirib qoldirish, qo'shish, o'rin almashtirish – bu tarjimonning mahoratidan dalolat beradi. Agar tarjimon o'z kasbining yetuk mutaxassis, shoir, yozuvchi bo'lsa, tarjima jarayonida hech qanday qiyinchilik unga muammo tug'dirmaydi. Agar bilim darajasi sust va tajribasi kamroq bo'lsa, Rederer M. aytganidek: “Agar qo'lingdan tarjima qilish kelmasa, u boshqalar tomonidan bajarilishi kerak. Tarjimon shunday muammolarni o'rganib chiqib, ularni qanday bartaraf etishga bilim va ko'nikma hosil qiladi va o'ziga kerakli bo'lgan shart – sharoitlarni yaratadi. Albatta har bir mutaxassis o'z ishining natijasini ko'rishni istaydi va uning uchun sitqidildan harakat qiladi. Shunda tarjimon ham, til o'rganuvchisi ham ko'zlagan maqsadiga erishadi.

Zero, tarjima nazariyasining bosh vazifasi nazariyani mustahkamlab, adekvat tarjimani keltirib chiqarish va har xil noo'xshov tarjimalarning oldini olish. Albatta, har bir narsaga qiyinchilik bilan erishilsa, har qanday ish ham muvaffaqiyat qozonadi.

Tarjimon tomonidan amalga oshirilgan adekvat tarjima esa asrlardan asrlarga ellar, millatlarningko'zgusi bo'lib qolaveradi. Xulosa o'rnida yana shuni aytish mumkinki, asliyatda yaratilgan har qanday asar (yoki har qanday og'zaki chiroyli nutq) da, xoh u ijobiy, xoh salbiy bo'lsin baribir kitobxonga qandaydir ta'sir etadi: qandaydir estetik zavq olishi mumkin yoki salbiy voqeaga bo'lgan nafrat hisini uyg'otadi. Ana shunday chiroyli asarni yuzaga keltirish uchun avvalo, yozuvchi – shoir va albatta tarjimonning vazifasi juda katta. Oddiygina bir xatolik butun tarjimaning ma'nosini o'zgarishiga olib keladi. Demak, tarjima o'zgardimi kitobxonga yoki boshqa chet ellik insonga keskin ta'sir qiladi va har ikkalasi uchun tushunarsiz bo'ladi. Haqiqiy tarjimon faqatgina tarjima qilish bilan cheklanib qolmasdan, o'sha ikki tilning grammatik jihatlarini ham o'rganib chiqishi kerak bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Har bir tarjima turning o'ziga xos elementlari, aytaylik, so'zlari, ohangi, yozilish qoidasi bo'ladi, ana shu qonun-qoidalar doirasidan chetga chiqmagan holda ish ko'riladigan bo'lsa, tarjima jarayonida, ham muallifning mahorati ham tarjimonning mahorati namoyon bo'ladi. Ammo har bir tarjimaning zamirida chuqur ilmiy izlanish, yuksak did, keng mulohaza va eng avvalo o'z ona tiliga hurmat hamda chuqur amaliy tajriba yotadi. Hech bir chet el asari yohud jumlasini chuqur tahlil qilmay turib tarjima qilib bo'lmaydi, uning zamirida albatta o'z ona tilimizni chuqur bilishimiz, teran fikr yurita olishimiz hamda grammatik, leksik hamda stilistik qoidalarga e'tibor bergan holda mukammallikka erishishimiz lozim.

Ilmiy ishimizga yakun yasar ekanmiz, yakuniy xulosaga keladigan bo'lsak, avvalambor o'z ona tilimizni mukammal bilishimiz baravarida chet tillarini bilishimiz kerakligi ham hozirgi davr talabi ekanligi hech kimga sir emas.

Xususan yurtboshimiz I.A.Karimovning PQ 1875 – sonli qarorlarida ham chet tillari xususan, ingliz tilini o'rganish hamda uni maktabgacha ta'lim muassasalari hamda boshlang'ich sinfdan ingliz tilining o'rgatilishini joriy etish, fikrimizning yaqqol dalilidir. Bunda yurtboshimizning chet tillarini o'rganish zamirida, o'zga millat va elat madaniyatidan xabardor bo'lib, o'zligimizni namoyon qilishdek, ulkan maqsad yotadi.

Buni tarjima va tarjima nazariyasi misolida ko'radigan bo'lsak, o'zi umuman tarjima bizga XX asr boshlarida kirib kelgan. O'zbek mumtoz adabiyotining shox asarlari aynan o'sha davrda dunyoning barcha tillariga tarjima qilingan. Aynan ana shu tarjimalar bilan I bobimizning 1-rejasida atroflicha fikr yuritganmiz.

Aynan ana shu mumtoz shox asarlari tarjimalari jamiyatga kirib kelganidan so'ng, tarjima hamda chet tilini xususan ingliz tilini jamiyatga tobora yoyish avj oldi. Har bir oliy bilim yurtlarida, tarjima fakultetlari hamda tarjima nazariyasi va amaliyoti yo'nalishlari ochildi. Tarjima nazariyasi esa taxminan 1960-yillarda alohida fan sifatida tan olinib, turli xil universitet va pedagogika institutlarida fan sifatida o'tilgan. Hozirda mavjud bo'lgan tarjima va tarjima nazariyasi

tushunchalarining mustaqillikdan ilgari ham keng miqyosda o'rganilganligini quyidagilarda ko'rishimiz mumkin:

Turli xil universitet, xususan, roman-german filologiyasida ham tarjima nazariyasi va amaliyoti umumiy-majburiy fan sifatida o'tilganligi, undan tashqari yana universitetni bitiruvchi talabalar o'zlarining asosiy mutaxassisliklaridan tashqari qo'shimcha ravishda tarjimon degan mutaxassislikka ega bo'lishlari ham o'z navbatida tarjimachilikka xususan tarjima nazariyasiga mustaqillikdan ilgari e'tibor berilganligi fikrimizning dalilidir. O'sha davrda ham chet tillarini o'rganish davr talabi bo'lib, buning natijasi yillar sayin o'z samarasini bergan bo'lsa ne ajab.

Demak, O'zbekistonda tarjimaga oid tushunchalar va ularni tadqiq etish, mustaqillikdan oldin boshlangan, shunday ekan, tarjima qilish san'ati bizga nafaqat bir tushuncha, balki, bir darslik sifatida ham o'tilib, taraqqiyotga erishgan.

Chet tillarini o'rganish mustaqillikdan oldin o'z samarasini bergan bo'lsa, uning samarasi asosan oliy bilim yutlarida namoyon bo'lgan bo'lsa, hozirda aynan mustaqillik yillaridan keyin, yanada takomillashdi. Bunga yurtboshimizning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasi 1997-yil 29-avgustda "Ta'lim to'g'risida"gi qonun haqida so'zlagan nutqlarida, chet tillarini o'qitishda mukammal ish olib boradigan mutaxassis, aynan oliy toifadagi o'qituvchilar haqida quyidagi fikrlarni yuritganlar:

"Eng muhim masalalardan biri shuki, domlalarining saviyasi va bilimini oshirishga shart-sharoitlar tug'dirishimiz kerak. Domlalar, professorlar, kafedra mudirlari o'z ustida ishlamasalar, o'z sohasi bo'yicha chet mamlakatlarga ilmiy safarlarga borib kelmasa, tajriba almashmasa, albatta bunday ahvol o'quv jarayoniga va uning samarasiga salbiy ta'sir qiladi.

Yetuk saviyali domlarni tayyorlash bo'yicha maxsus fond tashkil etish kerak. Biz shu fond orqali domlarni, O'zbekiston professorlarini chet mamlakatlarga yuborib, malakasini oshirib kelishiga imkoniyat yaratishimiz kerak.

Ular chet ellarda malakasini oshirsin, dong'i chiqqan universitetlarda o'zlari leksiylar o'qisin, tajriba orttirsin, mana shundan keyin O'zbekistonning obro'yi – nomi olamga ovoza bo'ladi".

Yurtboshimizning biz yoshlarga hamda bizga ta'lim berayotgan o'qituvchilarimizga qanchalik darajada keng yo'l ochilganligi hamda sharoitlarning yaratib berilganligi yuqoridagi nutqda o'z ifodasini topgan.

Xulosa qilib aytganda chuqur malakaga ega bo'lgan o'qituvchilar hamda ularning ta'lim-tarbiyasini, chuqur tajribasidan bahramand bo'lgan biz yoshlar o'sib unamiz, hamda ushbu muqaddas vazifani biz ham kelajak avlodga yetkazamiz.

Bu kabi imkoniyatlarning zamirida o'z millatimiz, davlatimizni jahonning eng mashxur hamda rivojlangan davlatlari qatoriga yetkazishdek oliy maqsad yotadi.

Faxrlanarlisi shundaki, chet el asarlari ham o'zbek tiliga tarjima qilinib, sayqallanib, jamiyatga yoyilib, teatr yoki kino talqinida namoyon bo'lgan. Xorijiy mamlakatlarning shox asarlari o'zbek tiliga bekamu ko'st, yuksak darajada tarjima qilinib, mamlakatimizning eng mashxur, malakali aktyor hamda aktrisalari tomonidan ijro etildi. Shu borada tarjima qilinayotgan millat madaniyati va urf-odatlaridan bizning jamiyatimiz boxabar bo'ldi.

Yuqoridagi rejalarimizda tarjima turining sinxron, badiiy ilmiy hamda boshqa turlari bilan tanishib o'tdik. Undan tashqari yana tarjimaning jamiyatimizga kirib kelishi arafasida asosan qaysi tarjima turidan foydalanganligimiz haqida fikr yuritganmiz, bular bevosita hamda bilvosita tarjimalardan iborat bo'lib, qaysi asar kim tomonidan, qay yo'sinda tarjima qilinganligi haqida takidlab o'tganmiz. Tarjima turining hamma tomonlama qulay hamda lo'nda fikr va ma'noga ega bo'lgan turi informativ tarjima turi haqida ham atroflicha fikr yuritganmiz.

Informativ tarjimaning aynan kimlar o'rtasida amalga oshirilishi, uning jamiyatdagi o'rni hamda uning amal qilish chegarasi bepoyon. Informativ tarjimaning nega aynan ushbu nom bilan atalganligi, uning qanday xabarlarini tashishi, qay yo'sinda amalga oshirilishi, informativ tarjimada uchraydigan atamalar, uslublar, grammatik, leksik o'zgarishlarning amalga oshirilishi qay yo'sinda olib borilishining guvohi bo'ldik. Tarjimalar orasida hech qanday badiiy bo'yoqlarsiz, mukammallikdan yiroqda holda tarjima qilinadigan tarjima turi informativ tarjima hisoblanadi.

Informativ tarjimada aynan qo'llanadigan uslublarning ishlatilishi hamda aynan matn tarjimasiga mos tushishi ham tarjimonning qilayotgan izlanishlari va tarjimasida namoyon bo'ladi. Tarjima tilidan o'zbek tiliga qilinayotgan tarjimada ayrim so'zlarning asl holatida, ya'ni umuman tarjima qilinmagan holda o'zbek tilida berilishi ham informativ tarjimaning tarjimaturllari orasida eng mukammali va ayni paytda eng osoni hisoblanadi.

Informativ tarjima aynan gazeta –jurnallar tarjimasida namoyon bo'lib, u asosan rasmiy va ilmiy publitsistik uslubdan foydalanilgan holda amalga oshiriladi. Ushbu uslubga xos bo'lgan so'zlar ustida ishlash va tarjimada qo'llay bilish tarjimonning mahoratiga bog'liq. Informativ tarjima turida ommaviy axborot vositalarining o'rni beqiyos ekanligi, aynan ommaviy axborot vositalarining xabar berish xususiyatlari mavjud bo'lgani kabi tarjimon, informativ tarjima jarayonida xabar berish mayliga asosan ish ko'rishi informativ tarjimaning qonun-qoidalariga kiradi. Ilmiy ishimizdan olgan xulosalarimiz shundan iboratki, har qanday xorijiy tilni o'rganish jarayonida, uning tarixi kelib chiqishi, tildagi grammatik, leksik hamda stilistik qo'shimchalar bilan tanishib o'tishi. Shu o'rinda yurtimizda informativ tarjimaga yanada kuchli e'tibor berilib, ayniqsa davlatlar o'rtasida bo'layotga xatlar tarjimasidan namunalar bo'lib, ularning barchasi oliy ta'lim muassasasi o'qituvchilari tomonidan tahlil qilinib, biz yoshlarga mukammal o'rgatilishini xohlardik. Shu o'rinda asosan informativ tarjimaga oid darsliklar chop etilsa, foydadan holi bo'lmaydi.

Chet tillar institutida turli xildagi radio eshittirishlarning tarjimasi va uning tillar o'rtasidagi tahlili talabalarga o'rgatilib, alohida amaliyot sifatida o'tilsa, informativ tarjima haqidagi bilim va ko'nikmalarimiz yanada takomillashardi, deb talkiflar kiritgan bo'lardik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. “O‘zbekiston XXI asr bo’sag’asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari”. Toshkent, “O‘zbekiston” nashriyoti, 1997-yil.
2. Karimov I. “Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori” Toshkent, 1998-yil.
3. Karimov I. “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2012-yil 10-dekabrda PQ-1875-sonli qarori.
4. Karimov I. A. “Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch” –Toshkent, 2010. -176 b
5. Aznaurova E.S “Translation theory and practice”. “O‘qituvchi” 1989. pp 183
6. Esenboyev.Z va boshqalar “Tarjima san’ati”, Adabiyot va san’at nashriyoti, Toshkent – 1978-y.
7. Frances Hodgson Burnett. “The Secret Garden ”, Oxford University Press, 1999. 60p
8. Galperin I.R “Stylistics”. Moscow. 1971. Pp 278
9. Ilish B. “The History of the English Language” – L.,1971. -427p.
10. Ilish B. “The Structure of Modern English” – L., 1971.-363 Oxford Dictionary of English, Revised Edition. © Oxford University Press 2005.
11. Ko‘chiboyev. A. “Bilvosita va bevosita tarjima tahlili”. “SamDCHTI” nashriyoti, Samarqand – 2006
12. Musayev.Q. “Tarjima nazariyasi asoslari”. Darslik. “Fan” nashriyoti, 2005.
13. Mo‘minov. O. “Sinxron tarjima”. Toshkent – 2005-yil.
14. Salomov .G’. “Tarjima nazariyasi asoslari”. Toshkent, “O‘qituvchi” – 1983,-341 b.
15. Salomov . G’. “Tarjima nazariyasiga kirish”, “O‘qituvchi” nashriyoti, Toshkent – 1978 –yil.
16. Salomov. G’. “ Tarjima madaniyati” – Toshkent, 1982.

17. Uzbekistan Today №.16 (184) April 23, 2010
18. Uzbekistan Today №. 24 (192) June 18, 2010
19. Uzbekistan Today №.10 (386) March 6, 2014
20. Uzbekistan Today №24 (400) June 13, 2014
21. “Chet tillarini o’rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 10. 12. 2012
22. Комиссаров В.Н. “Теория перевода (лингвистические аспекты)” – М., 1990, -190с.
23. Миньяр-Белоручев Р.К. “Последовательный перевод” – М., 1969, -323с
24. Миньяр-Белоручев Р.К. “Общая теория перевода и устный перевод” – М., 1980. -337с.
25. Паршин А. “Теория и практика перевода” – М., 2001. -287с.
26. Федоров А.В. “Основы общей теории перевода” – М., 2002. -342с.
27. Рецкер Я.И. “Теория перевода и переводческая практика”- М., 1974. -321с
28. Рецкер Я.И. “Теория перевода и переводческая практика”- М., 1974. -321с
29. Серль Д. “Лингвистические аспекты перевода” – М., 1998. -355с.
30. Швейцер А.Д. “Перевод и лингвистика” – М., 1973. -282с.

Internet materiallari:

31. www.wikipedia.com/Letters
32. www.wikipedia.com/Business letters
33. www.wikipedia.com/formal, informal letters